

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT”
TA’LIM YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA SAN’AT
VOSITALARIDAN FOYDALANISH”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada dastlabki
himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil
etish va boshqarish” kafedrasining ____ - sonli
yig‘ilish bayonnomasi

“____” _____ 2014 yil

Kafedra mudiri

Katta o‘qituvchi: Shodiev X.X

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchisi

Nabiyeva Nodira

Ilmiy rahbar:

Katta o‘qituvchi: V.Q.Rustamov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

Kirish	3
I. BOB. MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Bayram tushunchasi va ularni tashkil etish.....	8
1.2. Madaniy tadbirlar orqali yoshlarni tarbiyalashda san'at vositalarning roli.....	23
II. BOB. MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA SAN'AT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI	
2.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari	33
2.2. San'at va madaniyat sohasini boshqarish va madaniy tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	51
Xulosa	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	64
Ilovalar	67

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni o‘zligini anglashga imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va ma’naviy intellektual, aqliy-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Hammamizga yaxshi, ma’lumki, yoshlik intilishlari chegara bilmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ezgu orzu-niyatlar bilan yonib yashayotgan yigit qizlarga ular ko‘zlayotgan yuksak ufqlar, buyuk maqsadlar, avvalo, insonning o‘zi uchun yurti va xalqi uchun foydali ekanligini ochib berish mumkin¹.

Bu o‘z navbatida insoniyat yaratgan an’naviy ilmiy boyliklarga, insonning o‘ziga yangicha munosabat yondoshuvini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Fuqarolar endi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi bajaruvchisi emas balki bunyodkori va tashkilotchisidir”.²

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma’nodagi ozod va suveren mamalakatga aylandi.

O‘zbek davlatchiligi rivojidadagi tarixiy tajribalarga tayangan holda, insonparvar, demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ma’naviy-ma’rifiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishda yoshlarni faol ishtirok etishlari endilikda hayotiy dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Ma’lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda “Har qaysi davlat yoki millat o‘z farzandlari qiyofasida unib o‘sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go‘zal fazilatlarini namoyon etadigan, uning

¹Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat-T: O‘zbekiston 1995. 66-67 betlar.

² Karimov I.A.O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.- T: O‘zbekiston, 1997. 112-130 betlar.

ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir.”

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalarning madaniy tadbirlarni tashkil etishda san'at vositalarining hamo'rni beqiyosdir.

Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb hisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasalar Respublikamiz madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru - muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaxolatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Xalq ijodi-tarixiy taraqqiyot davomida xalqning idealariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo'lib kelgan. Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari hamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy mahorati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimov fikriga to'htalish darkor- "Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz."¹ Bu bevosita madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyati doirasida xalq amaliy san'ati namunalari, texnik ijodiyot, badiiy adabiyot orqali milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bu bevosita yoshlar hayot faoliyatining maqsadli yo'naltirishda ulardan foydalanish ham moddiy ham ma'naviy ta'minot bazasiga aylantirishdan iborat faoliyat faqatgina ta'lim muassasalarinigina vazifasi emasligi, bu jarayon aynan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat turi va maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerakligini yana bir karra isbot etadi.

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini behtiyor ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'zigina haqiqiy ta'surotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasi bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Bugungi kunda madaniy tadbirlarni tashkil qilish va ularning faoliyatlarida sab'at vositalaridan foydalanish juda murakkab jarayon bo'lib, u vositalar orqali yoshlarni tarbiyalashga oid bunyodkor g'oylarni ilgari surish bilan qiziquvchi ilim sohiblari ko'paymoqda. Madaniy tadbirlarni tashkil etish O'zbekiston respublikamiz mutaqillikka erishgandan sung madaniyat sohasiga keng imkoniyatlar ochib berildi. Bu sohada ko'plab yutuqlarga erishilmoqda. Bu sohanio'rganishga bel bog'lagan tadqiqotchilarimiz yo'q emas albatta.

¹Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat-T: O'zbekiston 1995. 66-67 betlar.

Tadqiqotning maqsadi: Madaniy tadbirlarni tashkil etishdan bosh maqsad xalqimizning turmush tarzini yaxshilash va ularga erkinlikning qadriga yetish, jamiyatning faol a'zosi bo'lishga undashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- madaniy tadbirlarni tashkillashtirishni boshqarishning o'ziga xosligini shakllanishiga ta'sirini o'rganish.

- Mustaqillik sharoitida madaniyat tarbiyasining rivojlanishini boshqarishda, ijtimoiy qadriyatlar va uning shakllanishida san'at vositalarining rolini ilmiy jihatdan talqin qilish.

- san'at tashkilotining rivojlantirish maqsadlarini aniqlash;

- uning strategiyasini ishlab chiqish;

- muammolarni yechish uchun tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- vazifalarning bajarilishini nazorat qilish.

Tadqiqotning ob'yekti:

Madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi va barcha madaniyat muassasalaridagi mavjud tadbirlarni keng miqyosida o'rganish.

Tadqiqotning predmeti: madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ularning faoliyatida san'at vositalaridan foydalanishni boshqarish xususiyatlari va shakllari belgilangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarining rivojlanishini boshqarishaholiga namunali xizmat ko'rsatish va san'at vositalarining muhimlik darajasi aniqlandi.

2. Madaniy tadbirlarni tashkil etish va ularning faoliyatni boshqarish shaxsining shakllanishida ijtimoiylashuv va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga qiziqishlarini o'yg'otish.

Tadqiqotning metodologik asosi:

Ushbu mavzuni taxlil qilishda va uni yoritishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risidagi qonuni" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. A.Karimovning asarlari, ta'lim muammolari, xalq ta'limi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, internet saytlari va boshqalarning ilmiy ishlaridan va metodik jurnal adabiyotlaridan Respublikamizning ushbu sohasidagi mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarning tahliliy ma'lumotlari ishda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning metodlari: mavzuga oid adabiyotlarni to'plash va ularni o'rganib chiqish, kuzatuvlar olib borish, savol-javob, anketa va suhbat usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil, madaniy faoliyatning xususiyatlarini o'rganilishi fanga nazariy xissa bo'lib qo'shildi. Madaniy tadbirlarning muhim va uncha ahamiyatga ega bo'lmagan mexanizmlarni, aniqlash bu jarayonga rejali ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

BMIning strukturaviy tuzilishi:

- kirish.
- asosiy qism (2-bob 4 punkt).
- xulosa va tavsiyalar.
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
- ilovalardan iborat.

I.BOB MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bayram haqida tushuncha va ularni tashkil etish.

Arxeolog, tarixchi, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, madaniy – ma'rifiy faoliyat eng qadimgi davrlardayoq paydo bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muxim rol o'ynagan. Masalan, olimlarning qayd qilishlaricha "...bayramlarning, chuqur ildizlari insoniyatning go'daklik davriga borib taqaladi" yoki "bayram –insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir", deb ta'kidlaganlar.

Ma'lumki, inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan mavaffaqiyatlar esa xursandchilikni vujudga keltirgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun ko'rayotgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan, chunki arxeologik qazilmalar va g'orlardan, shuningdek, Surxondaryo viloyatining Sherobod voxasidagi Zarutsoy darasining ikkala tomonida chizilgan rangli suratlarda qadimgi davrda yashagan ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan primitiv suratlarda asosan xayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba'zan xayvonlar niqobida) kabi tasvirlar qadimgi odamlarning o'z mexnati ovi natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Darxaqiqat ibtidoiy odam mexnati qanchalik samarali tugasa, qorni to'ygan, xursand bo'lgan va aksincha bo'lsa, och qolgan, xafa bo'lgan. Ovdan o'lja bilan qaytish va o'z mexnatidan manfaatdor bo'lish xursandchilik, shodiyona kayfiyatni yaratgan. Bu xolatda ovchilar ov jarayonini imo-ishora, maxsus xarakatlar xamda o'yin shaklida ifodalashga urinishgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muxim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda ular ovdan oldin o'tkazilganligi, ba'zilarida esa ovdan keyin o'tkazilganligi qayd etiladi.

Ovdan oldin o'tkazilgan o'yinlar ov oldi mashqi, ya'ni ovga tayyorgarlikni tekshirishni, ovga ruxiy va jismoniy shaylanish vazifasini o'tagan xolda jiddiy

o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o'yinlar jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirishni, unga yaqinlashishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, xayvon qiyofasiga kirishni, uning yurish-turishlari, tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni xam ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan xam o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan ovchilar maxoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Ovdan keyingi o'yinlar ov muvaffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan. Chunki ovdan o'lja bilan qaytish – bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan. Ovchilar bunday o'yinlar yordamida “... kun bo'yi ov qilib, charchab qaytgach, kechqurunlari o'zlariga dam berish, bugungi taassurotlarini, kayfiyat va tuyg'ularini, ovdan mamnunliklarini, to'qlikni, sho'xliklarini ifodalashardi”, deb yozadi professor M.Raxmonov “O'zbek teatri” asarida.

Bu jarayonlar, ya'ni xar bir muvaffaqiyatli ovdan keyin o'yinning an'ana bo'lib qolishi bayram kayfiyatida o'tadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Zarautsoy darasida, Farg'ona vodiysidagi Saymalitosh g'orlarida aks ettirilgan devoriy rasmlardan va boshqa arxeologik topilmalar, tasvirlarda bularni ko'rishimiz mumkin.

Demak, insonning “birinchi kasbi” - ovchilik asosida – “Ovchilik o'yinlari” vujudga kelgan bo'lsa, uning dexqonchilikka o'tishi va u bilan shug'ullanishi natijasida “Mehnat o'yinlari” shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan. Shunday qilib mehnat - bu bayramning bosh manbai, asl zamiri xamda ilk chashmasi hisoblanib, bayram xolati ibtidoiy davrdan boshlab “yashash uchun kurash” - mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan.

Tarixdan bizga shu narsa ma'lumki, ibtidoiy jamiyatda xam jamoa va uning a'zolariga bag'ishlangan tantanalar asta – sekin shakllana borgan. Bu xildagi ilk shakllarga “Orgaistik bayramlarni” misol qilish mumkin. Bu kunda barcha erkak va ayollarga o'zlari uchun juft tanlash erkinligi berilgan.

Urug'chilik davrida oila vujudga kelishi bilan o'sha davrlarga xos to'y marosimlari shakllandi. Bu qadimiy to'ylarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, to'y kuni kuyov va kelinning turmush qurishga qay darajada tayyorligi sinab ko'rilgan.

Qadim davrlarda bayram kayfiyatida o'tadigan marosimlardan yana biri "Erkaklikka o'tish" edi. O'spirin unga uzoq vaqt tayyorlanib, o'zining hayotga tayyorligi va kuchini namoyish qilishga intilgan. Bu marosimda o'spirin qiynalgan, sinalgan, xullas, imtixonidan o'tkazilgan.

So'ng u bolalik odatlarini tashlab, kattalarga qo'shilgan birga ovga borgan, birga mexnat qilgan.

Ibtidoiy jamiyatdayoq odamlar atrofidagi xodisalarni anglashga intilganlar, lekin ularning tabiat sirlari oldida aqliy jixatdan ojizligi natijasida turli iloxiy kuchlarga sig'inish, jumladan:

1. totemistik (xayvonlarning iloxiy kuchiga sig'inish)
2. animistik (jon va rux obrazidagi iloxiy kuchlarga sig'inish)
3. politeistik (quyosh, suv, yer, olov va boshqalarga sig'inish)

magik (insonning so'z, odatlari orqali namoyish qilinadigan iloxiy kuchiga ishonish) kabilar vujudga keldi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar bunday qarashlarni, orzularini muayyan marosim va bayramlarda aks ettirishga uringanlar. Masalan, qurg'oqchilik davrida "YOmg'ir tilash" («Sust xotin»), shamol zarar keltirganda "Shamolni to'xtatish"- "Choy momo", "Shamolni chaqirish", bevaqt sovuq tushganda "Kuyoshga sig'inish", omad kelmaganda "Kurbanlik qilish" kabi marosimlar o'tkazilgan.

Istiqlol iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlarni amalga oshirishda keng imkoniyatlar berdi. Bu islohotlar ichida inson kamoloti va uning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi alohida o'rin tutadi. San'at insonlarni go'zalikka chorlovchi, birlashtiruvchi vositadir. San'at shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir. "Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarmiz iymon-

e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman"¹, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Shu sababdan ham hozirgi kunda san'at va madaniyatga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 1998-yil 26-martda "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"ga Farmoni, 1998-yil 22-mayda "O'zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2001-yil 21-sentabrda "Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga "Milliy teatr" maqomini berish to'g'risida"gi Farmonlarining qabul qilinishi so'zimizning isbotidir.

Darhaqiqat, san'at koshonalari, san'atni o'rgatuvchi muassasalar boshqa tashkilot yoki muassasalardan o'zining ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Chunki san'at sohasi bilan shug'ullanuvchi muassasalarda "sahna" deb atalmish muqaddas bir pirxona borki, unda faoliyatning asosini tarbiya, insonlarga yaxshilik, ezgulik ulashish, davr mafkurasiga xizmat qilish, Vatanni sevish, ardoqlash kabi buyuk niyatlarga intilish tashkil etadi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning "Sahna san'ati insonlarga nafaqat zavqu-shavq baxsh etadi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi—bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir"¹, deb aytgan so'zlari aynan sahna san'atining jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatining buyukligi va bunga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berishi fikrimizning dalilidir.

Sahna shunday bir minbarki, undan turib ichingdagi darding, quvonchu izhorlaring va boshqa his-tuyg'ularingni bemalol aytishing mumkin. Teatr san'ati, musiqa, raqs va boshqa san'at turlari orqali ham insonlarni tarbiyalash, ularga estetik zavq bag'ishlash, ezgulikka undash kabi maqsadlar qo'yilganki, uni amalga oshirish uchun esa badiiy jamoa rahbari turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Demak, ifodaviy va ta'sirchan vositalar sahna

¹Karimov I.A."Milliy teatrimiz - iftixorimiz". Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi. 2001 yil 30 avgust.

¹ O'sha joyda.

asarining yuzaga chiqishidagi barcha faoliyatlarda qo'llanishi va kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, bu ifodani ommaviy bayram va tomoshalarda yaqqol ko'rish mumkin. Keyingi yillarda, aniqrog'i, yurtimiz mustaqillikka erishgach, bayramlarni tashkil etishga bo'lgan e'tiborning kuchayganligini sezishimiz mumkin. Ommaviy bayramlar madaniy tadbirlarning oliy ko'rinishi bo'lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Shuning uchun ham mazkur darsning asosiy qismi bayramlar mavzusiga qaratilgan.

Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urf-odatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o'sha davlatning milliyligi, o'ziga xos urf-odatlarini o'rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgu'dir. Bayram jamiyatning kechasi, buguni, ertani haqida dalolat beruvchi jonli manbadir.

Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy "Bayram-xalqning shodlik va xursandchilik kunidir", degan edi. Biror-bir muhim ijtimoiy voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash bayram deb tushiniladi.

Abu Rayhon Beruniy bayramlarni hayotdagi "eng muhim kunlar" deb ularni quyidagi turlarga bo'ladi:

1. dunyoviy bayramlar
2. diniy bayramlar

"Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi", deb ta'kidlaydi Umar Xayyom.

XX asrda bayramlar bilan ko'pgina olimlar shug'ullanishgan. Bayramlar mohiyatini to'g'ri anglash, tarixi va hozirgi kundagi hayotini tushunishda ayniqsa

M.M.Baxtin tadqiqotlari muhim. “Bayram hamma vaqt dunyoni teran idrok etish mazmuniga ega bo‘lib kelgan. Ijtimoiy mehnat jarayonini tashkil etish va mukammallashtirishdagi “mashqlar”, “mehnat o‘yinlari”, mehnatdagi dam olish yoki nafasni rostdash hech qachon o‘z holicha bayram bo‘la olmaydi. Ularning bayram bo‘lishi uchun borliqning boshqa sohasi, ma’naviy-mafkuraviy sohasidan nimadir qo‘shilishi shart. Ular moddiy dunyo va zarur shart-sharoitlaridan emas, inson hayotining buyuk maqsadlari dunyosidan, ya’ni ideallar dunyosidan da’vat va quvvat oladi”.

Bayramlar ham jamiyatdagi o‘zgarishlarga qarab, ma’lum darajada o‘zgarib boradi. Yangi bayramlar paydo bo‘ladi. Lekin bu bilan bayram shodiyonasi, insonlar xursandchiligi o‘zgarmaydi. Inson bayram kunlari o‘z hayotidagi tashvishlarni unitib, yangi liboslar kiyishga, o‘yin-kulgi bilan g‘uborini yozishga harakat qiladi.

Shu soha olimlari XX asrdagi bayramlarga baho berar ekan, M.M.Baxtin kontseptsiyasiga tayangan holda ish ko‘radilar. “Bayram – bu ma’lum vaqtdagi ideal hayotdir” – deb ta’kidlaydi I.I.Mazayev.

“Bayram – har bir fuqaro va butun jamiyat hayotini aks ettiruvchi o‘ziga xos ijtimoiy hodisadir” – deb ta’rif bergan D.M.Genkin bu fikrlarini yanada oydinlashtirib shunday deb yozadi, “Bayram – bu voqelik bilan san’atni uyg‘unlashtiruvchi, u yoki bu real hayotiy voqeani badiiy bezab ko‘rsatuvchi o‘ziga xos antiqa hodisadir”

“Bayram dunyo madaniyatida yig‘ilgan eng qimmatli boyliklarni o‘zida uyg‘unlashtiradi” – deb fikr yuritadi A.I.Arnoldov.

Bayramshunos olim filologiya fanlari doktori, professor U.Qoraboyev “O‘zbekiston bayramlari” nomli kitobida va mazkur kitobning qayta ishlanmasi sifatida yaratgan “O‘zbek xalqi bayramlari” kitobida o‘zbek bayramlarining xususiyatlari haqida to‘laqonli ta’rif bergan. O‘zbek bayramlari mohiyatan boshqa

xalqlar bayramlaridan farq qilmaydi, ular ham orzu, mehnat, kurash ifodasi, an'analar, go'zallik ko'zgusi, tinchlik, hamjihatlik, tenglik, hayotning davomi, muhim qismidir.

U.Qoraboyev xalq bayramlari mohiyatini belgilovchi bayramlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bayramning uchta asosiy xususiyatini belgilaydi:

1. Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo'lishi, bayramga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishi;

2. Bayramona holat, kayfiyatning paydo bo'lishi – bu hali bayram degani emas. Shu kayfiyatni, shu holatni, intilishni ro'yobga chiqarish uchun bayramni tashkil etish kerak. Ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir.

3. Bayram bu – teatrlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, kontsertlar, ko'rik-tanlovlar bellashuvlar, ya'ni rang-barang ommaviy tadbirlar birligidir¹.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida bayramga qo'yidagicha ta'rif berilgan: - "Bayram (turkiycha – katta yig'in, to'y) – keng nishonlanadigan tantanalik kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko'ra an'anaviy, diniy, milliy va boshqa bayramlar vujudga keldi. Avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib keladigan bayramlar an'anaviy bayramlar deyiladi. Masalan: Navro'z bayrami. An'anaviy bayramlar biror xalq yoki millatning ayni vaqtdagi ijtimoiy turmushi, hayot kechirish tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Diniy bayramlarda har bir monetistik dinning aqidalarida belgilab qo'yilgan marosimlar nishonlanadi"².

Tadqiqotchi E.V.Sokolov bayramlarni barcha dam olish shakllari orasida eng afzali deb ko'rsatadi. Chunki bayram tadbirlarida dam olishning eng samarali shakllari mujassamlashadi.

Tarbiya tizimida bayram o'ziga xos muhim va yirik tadbir sanaladi. Xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, ahloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi,

¹Qoraboyev U.X. O'zbekiston bayramlari, 49-50 betlar.

²O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1 tom. T.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 584 bet.

saqlashi va rivojlantirishi bilan yoshlar tarbiyasida ham bayramning ahamiyati katta.

Tarix shuni isbotlaydiki, bayramlar ma'nosi, g'oyasi xalqning o'yi, dardi, orzu-umidlari asosida paydo bo'lgan va o'zgarib, rivojlanib borgan. Bayramlarning yana bir xususiyati ularning muayyan vaqt, maxsus sana bilan bog'liqligidir. Kishilarda bayram kayfiyati avvaldan belgilangan vaqt, sana, kun kelganida paydo bo'ladi. Masalan, qishning sovuq kunlaridan so'ng ob-havoning isishi, tevarak-atrofnig ko'm-ko'k libosga o'ranishi, dov-daraxtlarning gullashi – bahor kelishi barcha kishilarga olam-olam quvonch shodlik olib keladi. Albatta, bu o'zgarishdan har kim o'zicha zavqlanadi. Ammo tabiat go'zalligi va bahor shodiyonasi hamma uchun umumiy bo'lganligi sababli odamlarda uni birgalikda nishonlash kayfiyati ham tug'iladi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun maxsus vaqt belgilanadi. Bu sanalarni belgilashda ming yilliklar tajribasidan kelib chiqiladi. Masalan, quyoshning hamal burjiga kirish vaqti "Navro'z" bayrami o'tkaziladigan vaqt sifatida belgilangan.

Professor U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari" kitobida quyidagi fikrni bildirgan – "Bayramning o'ziga xos xususiyati unda keng ommaning ishtirok etishidir. Bayram avvalo ko'pchilik uchun uyushtiriladi va u bevosita odamlarning ishtirokida o'tadi. Teatrlar, kontsert zallari, televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlarida omma faqat tomoshabin, tinglovchi rolini bajarsa, bayramlarda odamlar faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bayramlarda hamma o'z qobiliyatini namoyish qilishi mumkin. Kishilar bayram tadbirlarini ishtirokchi sifatida kuzatadi va bo'lgan voqelarga o'z munosabatini bildira oladi. Bayramlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning bir necha (kompleks) tadbirlar sintezidan tashkil topishidir. Har bir bayram ko'plab tadbirlar asosida uyushtiriladi. Bayramning tashkil qilinishi – uning mavzusi, g'oya, yo'nalishi maxsus shakl, tadbir va marosimlar orqali namoyon etishdir. Odatda har bir ommaviy (ayniqsa, ochiq joylardagi) bayramning ochilish marosim-tadbiri bo'ladi. Undan so'ng, bir joyda – bayram ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari; ikkinchi joyda – dor o'yini, polvonlar chiqishlari; uchinchi joyda - askiya va qiziqchilar chiqishlari,

qo'g'irchoq teatri tomoshalari; to'rtinchi joyda – badiiy havoskorlik jamoalari, folklor etnografik ansambllari kontsertlari; beshinchi joyda – sport musobaqalari kabilar tashkil qilinadi. An'analar, marosimlar, teatrlashtirilgan kontsert va tomoshalar, karnavallar, namoyishlar, xalq o'yinlari bayramlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Ommaviy bayramlar shu kabi tadbirlar asosida o'tkaziladi"¹.

Bayram-o'ziga xos, ko'p tomonli ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir insonni, jamiyatning hayotini namoyon etadi. Uning barcha dunyo xalqlari orasida tarqalganligidan, bayramlarning inson va jamiyat uchun hech narsaga almashtirib bo'lmaydigan bebaho boylik ekanligiga amin bo'lamiz. «Bayram jamiyat hayotining organik bo'lagi bo'lib, shu bilan bir qatorda, har bir insonning hayoti va faoliyatini tenglashtirib, omma erkin hayot faoliyatining markaziga aylanib, alohida olingan shaxsning emotsional tarangligini oluvchi razryad funksiyasini bajaradi».

«Bayram» - turkcha so'zdan olingan bo'lib, to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Falsafiy entsiklopediyada berilgan «Bayram» - insonlar xursandchiligining yig'indisi», - degan talqin eng to'g'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimgi davrlardan shakllana boshlagan asrlar bo'yi avlodlar avlodga o'tib kamol topib bebaho merosiga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlar eng qadimiy davrlarda xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan va boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan.

O'zbek xalqi bayramlarini davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

- Ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari (bunga ovchilik o'yinlari, zoofagik (ya'ni, totem hisoblangan ayiq, yovvoyi echki, sigir, bu esa ot kabilarga

¹Qoraboyev U. X.O'zbek xalqi bayramlari. T.2002.

sig'inish) bayramlar, mehnat o'yinlari, orgaist bayramlari va boshqa bayramlarni kiritish mumkin).

- O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy (islomgacha bo'lgan) bayramlar;
- O'rta asrlardan inqilobgacha bo'lgan davrdagi o'zbek bayramlari;
- Sho'rolar davridagi bayramlar;
- Mustaqillik davridagi bayramlar.

Oxirgi yillar ommaviy bayramlarning janr muammolari dolzarb bo'lib turipti. O'tkazilayotgan bayramlarning janrini aniqlashda ba'zi mutaxassislar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ba'zan ommaviy teatrlashtirilgan bayramlarning janri yo'q, degan kulgili so'zlarning guvohi bo'lamiz. Lekin bunday fikrlar noto'g'ri. Teatr san'atidagi kabi, ommaviy bayramlar ham o'z janr turlariga ega. Bu muammoni rejissyor, olimlar D.M.Genkin, I.G.Sharoyev, I.M.Tumanov, A.D.Silin, N.Vershkovskiy, U.Qoraboyevlar o'z izlanishlarida isbotlab berganlar. Ularning tajribalaridan kelib chiqib, ommaviy bayramlarni quyidagi janrlarga bo'lish mumkin:

- teatrlashtirilgan kontsert;
- kontsert-miting;
- ommaviy sayl;
- teatrlashtirilgan namoyish;
- ko'chalarda, maydonlarda, stadion va bog'larda o'tkaziladigan bayram harakati;
- milliy san'at dekadalari;
- san'at festivallari;
- qo'shiq bayramlari;
- raqs bayramlari;
- karnavallar;
- suvda o'tkaziladigan bayramlar;
- ochiq havoda namoyish etiladigan teatr-spektakllar;
- ko'cha bayramlari;

- sport bayramlari;
- teatrlashtirilgan bolalar bayramlari.

Bayramning paydo bo‘lishi, uning rivojlanish bosqichlarini **“Eortologiya”** fani o‘rganadi. **«Eortologiya»** - grekcha so‘zdan olingan bo‘lib – bayram haqidagi fandır. Mazkur fanning yuzaga kelishida va uni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda I.Snegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov K.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov kabi mutaxassislarning xizmatlari katta bo‘lgan. Shuningdek Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi Sharqning mutafakkir olimu-fuzalolari ham bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va roli haqida turli nuqtai nazar bilan yondoshib o‘z fikr va mulohazalarini bayon etganlar.

Mazkur sohadagi muammo va kamchiliklarni ijobiy hal etish, xalqaro konfrentsiyalar o‘tkazish, dunyo xalqlari bayramlarining xilma-xilligini o‘rganishi, bayramlarning ijtimoiy hodisa sifatida, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish mazkur fan mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biridir.

Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, o‘zining chuqur ijtimoiy - psixologik va tarbiyaviy ildizga ega ekanligi namoyon bo‘lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuni aytib o‘tish joizki, ommaviy bayramlar tarixi, ayniqsa O‘zbekiston bayramlari tarixining kelib chiqish genezisi, uning turlari to‘liq o‘rganilmagan. Tarix shunday fanki, qanchalik chuqur o‘rgansak, shunchalik kam bilishimizga ishonchimiz komil bo‘ladi. Ayniqsa ommaviy bayramlar tarixi juda ham kam o‘rganilgan.

Bu sohada birinchilardan bo‘lib falsafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O‘zbekiston bayramlari fani rivojiga o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Uning «O‘zbekiston bayramlari», «O‘zbek xalqi bayramlari» kitoblarida bu mavzuga chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixi to‘liq yoritishga harakat qilingan.

Yaqin davrlargacha bayramlar tarixi umumiy san'at tarixi sifatida (adabiyot va teatr) o'rganilib kelingan edi. Lekin, ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma'rifatning asosiy o'giti sifatida yuqori o'rinlardan birini egallab kelgan.

Ommaviy bayramlar tarixiga qisqacha nazar solsak, o'zining g'oyaviy jihatdan kompozitsion butun bo'lgan Qadimgi Yunoniston va Rim davridagi bayramlardan boshlasak bo'ladi. Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim bayramlarigacha ham insoniyat paydo bo'lganidan keyingi davrda bayramlar vujudga kelib, shakllangan. Lekin bu bayramlar o'zining ma'naviy, intellektual darajasi, ifodaviy shakllari jihatidan primitiv xususiyatga ega bo'lib, kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lmagan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davrida tashkil qilinib, o'tkazilgan xalq bayramlarida ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining elementlari vujudga kelgan.

Qadimgi yunonlarda bayram o'ziga xos mustaqil bo'sh vaqt va dam olishning bir shakli bo'lib, hatto doimiy jihatdan ham uzviy, faol mashg'ulot turiga aylangan. Bizga ma'lumki, Delfe, Pifiy, Nemeysk va Panfin o'yinlari juda ham ommabop bo'lgan. Lekin bu o'yinlarning ichida eng mashhuri Olimp o'yinlari bo'lgan. Olimp o'yinlari maxsus qurilgan Olimp shahrida 4 yilda bir marotaba o'tkazilgan.

Qadimgi Rim Yunoniston bilan qo'shni bo'lishiga qaramay, o'tkaziladigan bayramlar shakli va ko'rinishi jihatidan, tubdan farq qilgan. Yunoniston bayramlarida Afina fuqarolari faol qatnashishgan bo'lsa, qadimgi Rim tomoshalarida tomoshabin bilan ishtirokchi ajratilgan.

Aynan shu davrdan boshlab «tomosha» so'zi «bayram» so'zining sinonimiga aylangan.

Rim imperiyasi davrida qattiq sinfiy kurash yuzaga kelgani, imperiyani kuch bilan boshqarilayotganligi sababli, aholini chalg'itish maqsadida tomoshalar yuzaga keladi.

Qadimgi Rim imperiyasi tomoshalarida sahna texnikasi, ta'sirchan vositalar ancha rivojlandi. Ayniqsa Rimda qurilgan mashhur Kolizey tomoshagohi

hozirgacha insonlarni hayratga solib kelmoqda. Kolizey nafaqat kattaligi balki, harakatga keluvchi arenasi, sahna mexanizmlari orqali arenani ko'lga yoki o'rmonga aylantira olish kabi jihatlari bilan butun jahonga mashhur.

Ayniqsa, qadimgi Rimda dushman ustidan qozonilgan g'alabaga bag'ishlangan Triumf paradlari o'ziga xos teatrlashtirilgan harbiy parad edi. Bundan tashqari, gladiatorlar janglari, tsirk poygalari, artistlar musobaqalari, dengiz janglari, luperkali, «kichik triumf» - olqishlash kabi tomoshalar mashhur bo'lgan.

O'rta asrlarda ommaviy bayramlarning tabaqalashishi intensiv ravishda rivojlandi. Ayniqsa, feodal davlatning kuch-qudratini ko'klarga ko'taruvchi diniy bayramlar rivojlandi. Shu bilan bir qatorda shahar maydonlarida o'tkaziladigan hazil-mutoyibaga qurilgan bayramlar xalqning eng sevimli bayram tomoshalari bo'lib, ko'plab xalq ommasini to'plab, ularning kelajakka intilishi va ertangi kunga bo'lgan ishonchining kurtagi sifatida namoyon bo'lgan.

Rasmiy bayramlar, bu bayramlarning aksi o'laroq, hukmron tabaqaning manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan edi. Ommaviy bayramlarga bunday yondashish «dam olish» degan tushunchaning o'zgarishiga olib keldi. O'rta asrlarda shaxsning dam olishi, o'z xohishiga qarab erkin bo'lmay, cherkov, din arboblari tomonidan boshqarilgan. Bu davrda diniy bayramlarning o'zi yuzdan ortiq bo'lgan. Katta yer maydonlariga, ulkan siyosiy kuchga ega bo'lgan cherkov, bayramlarni ham o'z qo'liga kiritib, xalq oldida o'z ustunligini namoyish etib, o'zining tashviqot quroliga aylantirgan. Cherkovning badavlatligi bu bayramlarda kostyumlarning turli-tuman rang-barangligini ta'minlab, o'ziga xos teatrlashtirishni vujudga keltirgan, bu esa cherkov marosimlarini ommaviy bayram darajasiga olib chiqishiga yordam bergan.

Jumladan; O'zbekistonda tabiat bayramlaridan keng nishonlanganlaridan biri bu - Navro'z bayramidir. Bu bayramlar haqida X-XI asrlarda yashagan buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida batafsil to'xtalib, uning mohiyatini ochib, "Navro'zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar mavjud, lekin bu masalaga ilmiy yondashilsa,

“Navro‘z“ning paydo bo‘lishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo‘lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi sabab bo‘lgan. “Navro‘z“ning chuqur ildiziga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi».

Vaqlar o‘tib bu bayram rivojlanib, unga mos kun aniqlanib “yil boshi“ vazifasini o‘tay boshlagan. “Navro‘z“ bayramini nishonlash bir oyga cho‘zilgan. Bu haqida Beruniy quyidagicha yozadi: “Keyingi podshohlar bu oy, ya’ni farvardin mohning barchasi (kunlarini)ni hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim etadilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug’ kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g‘ulomlari uchun, to‘rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho‘ponlar uchun.

Qadimdan, insoniyat paydo bo‘lgan zamondan boshlab, bayramlar shaxsning hayotdagi muvaffaqiyatlari, orzu-umidi, voqea, hodisalar, mehnatdagi va boshqa sohalardagi yutuqlari, bosib o‘tgan yo‘llarini chuqur anglash, g‘alabalardan faxrlanish, ertangi kunga umid bilan yashash, bayram arafasida bir-birini qutlash, kelajak hayot uchun yaxshi istaklar bildirish, ishlariga omad, baxt tilash, o‘zligini, millatini anglash, milliy mafkurasiga ega bo‘lishdek g‘oyalarni ilgari surgan. Bayramlar vaqt qadriga yetish, uni e‘zozlash uchun sharoit yaratadi.

Bayram insonlarning estetik kechinmalariga ta’sir qilib, shaxsning ma’naviy dunyosini boyitadigan vositadir. Bayram va tomoshalarning asosini milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat, ehtirom egallab, insonlarga badiiylik, san’at orqali estetik zavq bag‘ishlashdek vazifalar ustuvor turadi. Bayram tashkilotchilari, ayniqsa seneriychi, rejissyor ishlatilayotgan materiallarning dolzarbligi, hujjatlar, faktlarning aniqligi va ularning badiiy uslublari yordamida sintezlash kabi vazifalar ulardan juda ham katta javobgarlikni talab qiladi. Bunday tadbirlar insonlarning ijtimoiy-pisxologik talablariga javob berib, mayda guruhlardan ommaviylikka

o‘tib, shaxslarning ommaviy harakatidagi faolliklarini oshirib, bayramona dam olishdek sharoitni yaratishga turtki bo‘ladi.

Maydonlarda, bog'larda, ko'chalarda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar nafaqat ommaviy xatti-harakatni yuzaga keltiradi, balki karnavallar, sayillar, festivallarda estetik zavq bag'ishlab, tomoshalarning tomoshaviyligini oshirib, bayramona kayfiyatni vujudga keltiradi. Chunonchi, bayramlarda insonlar yangi, go'zal kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi. Bayramkuniyomonlar-yaxshi, xasislar-sahiy, xunuklar-go'zalbo'ladi. Bayramlarning afzalliklari haqida qancha gapirsak oz, u keng xalq ommasini o'ziga jalb qilib, madaniy, ma'naviy ozuqa berib, hayotimizning barcha jabhalarini keng namoyish qiladi.

1.2. Madaniy tadbirlar orqali yoshlarni tarbiyalashda san'at vositalarning roli

Musiqqa san'ati: Madaniy tadbirlarda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri bu -musiqqa san'atidir. Musiqaning nazariy asosi ettita notadan iborat bo'lsa ham, uning ustida tom-tom ilmiy va nazariy xulosalar chiqarish borasida haligacha izlaninishlar olib borilmoqda. Turmushning hamma qirralarida, moddiy va nomoddiy sohada ham musiqqa san'ati kishilarni ezgulikka, yaxshilikka, ulug'likka chorlovchi, mehnatga undovchi, insonlarda estetik zavq uyg'otuvchi vosita sifatida qaraladi.

Musiqqa insonlarning og'ir damlarida dardkash, quvonchli kunlarida hamroh bo'lib, ularning ma'naviyatini yaxshilik tomonga yunaltirishga xizmat qiladi va qilayotir. Faqat san'at jabhalarida emas, balki hayotning boshqa sohalarida ham musiqqa muhim rollardan birini bajaradi.

Lekin teatrda ham, radio, televideniya ham musiqqa yordamchi komponentlardan biri hisoblanadi, deyishadi. Bu bilan musiqqa san'atlar ichida ikkinchi darajali ekan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Musiqqa san'ati – bu alohida san'at turi bo'lib, san'atning boshqa turlariga singib ketgan. Raqs, teatr va boshqa san'at turlarini musiqqasiz tasavvur qilib ko'rish mumkinmi? Albatta mumkin emas.

«Musiqqa» - yunoncha «musa» turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir². Qisqacha qilib aytganda, musiqqa – tovushlar yig'indisi, degan ma'noni anglatadi.

Agar xoreografiya, raqs san'ati qo'l, yuz, mimika xatti-harakatlari orqali badiiy obraz yaratuvchi san'at turi hisoblansa, musiqqa – tovushlar orqali yaratilgan san'at turi hisoblanadi. Insonning jamiyatda tutgan mavqei, madaniy-tarbiyaviy, g'oyaviy-tashkilotchilik rovida musiqqa yuksak o'rinda turadi. Har bir xalqning musiqqasi milliy xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Xalq

musiqasi uzoq yillar mobaynida shakllanib, xalqning boy xazinasiga aylandi. Xalq musiqasi bilan mustahkam boglangani holda professional musiqqa ham taraqqiy qilib keldiki, uning vujudga kelishiga mohir sozanda, bastakorlar o'z hissalarini qo'shdilar³.

Musiqqa san'ati sahna asarlari: teatr, drama, musiqali drama, opera, operetta, balet, kino va boshqa san'atlar ichida muhim rol o'ynaydi. Madaniy tadbirlarda esa uning roli benihoya ulkandir.

Madaniy tadbirlarda musiqaning turli janrlari ishtirok etishi mumkin. Undan tashqari, bunday tadbirlarda musiqali jamoalar, vokal cholg'u ansambllari, musiqalardan parchalar, alohida musiqali nomerlar, boshqaruvchilarning chiqishlari uchun musiqqa, xullas, voqeaning rivojlanishi uchun, tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini ushlab turishi uchun musiqqa san'atidan foydalaniladi.⁴

Musiqadan tadbirlar janrlaridan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqqa quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- musiqqa - qatnashuvchilar, ishtirokchi obrazlarini xarakterlab beradi;
- harakat vaqti, joyini ifodalashi mumkin;
- tomoshabinga ko'rinmayotgan voqealarni ilg'ab olishga, tez tushuna olishiga ko'maklashadi;
- harakat, voqeada sahnaviy muhit yaratadi;

¹ I. Akbarov . Muzika lug'ati. T. 209- b.

³ O'sha kitob. 210- b.

³ В. Рустамов. "Сахна ифода воситалари" Т., 2010, 346

- monolog va dialoglarning emotsionalligi (hissiyot, hayajonlilikini) kuchaytiradi;
- soʻz bilan ifodalash qiyin boʻlgan daqiqalarni tasvirlay bera olishi mumkin;
- xatti-harakat, voqealarni toʻldirishi, boyitishi mumkin;
- pauzalar oʻrnini toʻldirishi mumkin;
- vaqtni tejash yoki choʻzish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Spektaklni sahnalashtirishda (bunda musiqali spektakllar haqida gap bormayapti, chunki musiqali spektakllarda aktyor ijrosi bilan musiqa bir xil oʻrinda turadi) musiqa yordamchi effekt sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Shunday ekan, spektakl uchun alohida musiqa yaratish yoki tayyor musiqiy asarlardan foydalanish ham mumkin. Koʻpgina spektakllarda musiqa aktyorlar xarakterlarini izohlab berish imkoniyatiga ega boʻladilar. Masalan, “Kelinlar qoʻzgʻoloni” spektaklidagi doirachilar tomoshaning boshlanganligidan dalolat berib, spektaklni boshdan oxirigacha “regilirovka” qilib nazorat qiladi va boshqarib turadi. Undan tashqari, Farmonbibining oʻgʻillari oyisiga koʻrsatgan “spektakl” paytida har bir oʻgʻilning chiqishiga chalingan musiqa ijrochilarning xarakterini belgilab, tomoshabinga izohlab turadi.

“Demak, biz tadbirlarni toʻgʻri tashkil qilish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur boʻladi?”

Birinchiidan, tadbirlarning dramatik asosi boʻlgan ssenariy, uning yaratilishi jarayonlari, ssenariychilik (baʼzi hujjatlarda ssenariynavislik deb ham ataladi) faoliyati, uning yozilishi;

Ikkinchiidan, tomoshabinning nazari darrov tadbirlarni oʻtkaziladigan joyning bezagiga tushadi. Demak, bunda biz tadbirlarda rassomlik ijodiyoti, dekoratsiyalar haqida;

Uchinchiidan, kuy, qoʻshiqlar va musiqa barchamizning hayotimizga shunday singib ketganki, tadbirlarni sanʼatning bu turisiz tasavvur qilish

mumkin emas. Demak, musiqaning tadbirlarda tutgan o‘rni va roli, uning ta’sirchan va ifodaviy imkoniyatlari haqida;

To‘rtinchidan, hech tadbir raqslarsiz amalga oshirish mumkin emas, demak, xoreografiya san’ati, baletmeysterlar, ularning ijodiy faoliyati, raqslarning madaniy tadbirlarda tutgan o‘rni va raqs harakatlarida tasvirlash va ifodalash imkoniyatlari haqida;

Beshinchidan, hozirgi kunda har qanday bayram va tomoshalarda, konsertlarda, madaniy tadbirlarda teatrlashtirish usullaridan foydalanish va qo‘llash an’anaga aylangan. Demak, teatrlashtirish usullarini qo‘llagash haqidagi ma’lumotlarni bilishi lozim bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan faoliyatlar (sohalar) madaniy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etishning asosiy mezonlaridan hisoblanadi”⁵.

Badiiy bezak:Har qanday asar sahna yuzini ko‘rishida dramatik manba, aktyor va rejissyor asosiy material ekanligi, bunda aktyor asosiy figura hisoblanishi haqida yuqorida qayd etib o‘tgandik. Ammo yana bitta zaruriy soha borki, uning faoliyatisiz na spektakl, na biron-bir ommaviy tomosha to‘laqonli hisoblanadi. Bu – rassomlik ijodiyotidir. Uning rang tanlashdagi fantaziyasi, dekoratsiya yasash va unga mazmun baxsh etish, tomoshabinni turli ranglar jilosiga burkash, muhit yaratish, sahnani turli ta’sirchan va ifoda vositalari bilan to‘ldirish kabi vazifalari - uning faoliyatining murakkabligidan va boshqa san’at turlariga qaraganda mas’uliyati balandligidan dalolat beradi. Chunki parda ochilishi bilan tomoshabinning ko‘zi sahnaning bezagiga tushadi. Sahnaga aktyor kirib kelgach, uning diqqati aktyor tomon “og‘adi”. Sahna bezagi, dekoratsiya, butaforlar, aktyorlarning kiyimlari (teatr kostyumlari), chiroqlarda rang tanlash va boshqa bir qancha ishlar rassomning aralashuvisiz amalga oshirilmaydi.

Q.Xo‘jayev o‘zining “Sahnaga yo‘l” kitobining “Rejissyor va spektakl bezagi” bobida: ”Spektakl bezaklari ustida ishlay boshlar ekan, rejissyor uni asosiy ko‘rinish, namoyish etilishi mo‘ljallangan asarning g‘oyasiga bevosita ta’sir

⁵ В.Рустамов. Оммавий байрамлар режиссураси . Т., 2012. 386

etuvchi muhim omil deb biladi, ijrochilarning asarni u yoki bu tarzda talqin etishiga qarab spektakl qanday xarakter kasb etishini yetarli darajada ravshan tasavvur qiladi. Spektaklning tashqi sahnaviy manzaralari: bezaklar, loyihalar, matolar yoki pardalar, liboslar, ijrochilarning yuz bo'yashlari-yu, yasama sochlari, mebellar, yasama jihozlari (butaforiyalar) tomoshabin zehninga haddan tashqari kuchli ta'sir qilishini rejissyor chuqur his etadi".⁶ Muallif bu kitobida rejissyorning rassom bilan ishlash jarayoniga katta e'tibor berib, asarni sahnalashtirishdagi eng muhim jarayonlardan biri deb hisoblaydi va rassomlik ijodidagi ifoda vositalari deb, rang tanlash, obrazli yechim topish, sahnani bezashga oid jihozlar bilan to'ldirish, liboslarni tanlash va boshqa jihatlarda namoyon bo'lishi haqida yozadi.

«Eortologiya» o'zining birinchi ilmiy rivojlanish va shakllanish jarayonidayoq bayramlarni kompleks o'rganishga va uni ijtimoiy hayotning aniq bir bo'lagi sifatida qaralishini ta'minlaydi. B.Glan, I.Tumanov, A.Silin kabi ijodkorlarning rejissyorlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular o'tkaziladigan bayram va tomoshalarining «effektli tomoshaviylik»ka erishish yo'llari, bayramlarning dekorativ-badiiy bezagi haqida, umuman bayramlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganlar.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkaziladigan bayram va tomoshalarning badiiy bezagi bilan shug'ullanuvchilar ijodiga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida bunday mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada kam.

San'atshunos olim K.Makarov dekorativ bezak haqida fikr yuritib shunday deydi: «Badiiy bezash - sintezlashgan dunyoning go'zalligini tasvirlash formasidir"⁷. Darhaqiqat, dunyoning go'zalligini tasvirlash har qanday rassom ijodining oliy cho'qqisidir. Leonardo Do Vinchi, Rafael Mikelanjello, Rembrand kabi buyuk rassomlar ijod namunalarini yaratib,

⁶ Хўжаев Қ. Саҳнага йўлдош. Т., Ўқитувчи, 1982.

⁷ Макаров К.. Декоративно-оформительское искусство и праздничный город. Л. 1987 г. 29 стр.

dunyoni larzaga solganlar. Ularning asarlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular - bebahodir. Rassomlar ana shunday asarlari uchun butun qobiliyati, dunyoqarashini, yuragini, davr ruhiyatini va boshqa xususiyatlarini jo qilganlarki, shuning uchun ham bu asarlar hali hanuzgacha asrdan asrgacha, avloddan avlodgacha moddiy va ma'naviy meros sifatida yetib kelmoqda.

O'rta Osiyoda Behzod, Moniy kabi, O'zbekistonda Belkov, O'rol Tansiqboyev, Usta Mo'min, Abdulxaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Georgiy Brim, Ro'zi Choriyev, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Baxtiyor To'rayev kabi rassomlar rassomchilik san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardir. Rassomda shunday xususiyat bo'ladiki, rejissyorning tasavvuriga sig'mayotgan tushunchani u ko'z oldiga keltira oladi. Teatrda faoliyat ko'rsatayotgan rassom faqat teatr binosi ichkarisida, sahna atrofidagi badiiy bezakka e'tibor beradigan bo'lsa, ommaviy bayram va tomoshalarda uning masshtabi ming marotaba kengayadi. U nafaqat sahnani, balki butun maydonni, tomosha o'tkaziladigan joyni to'ldirib, unga ma'no va mazmun berishi lozim. Ommaviy bayram va tomoshalarda rassom - arxitektor, dizayner, dekorator – bezovchi va muhandis – konstruktorga aylanadi.

Teatr rassomi aniq "korobka" ichida, ya'ni sahnani bezashga o'z fantaziyasini ishga solib spektakl bezagini to'laqonli yoritishi mumkin. Ammo ommaviy bayram tomoshalar asosan, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ko'chalarda, bog'larda, sport maydonlarida, suv havzalarida, sirk arenalari, xullas, noan'anaviy sahnaviy sharoitda o'tkazilganligi uchun uning o'ziga yarasha qiyinchiliklari, hal qilish zarur bo'lgan muammolari bor. Masalan, sport maydonini olaylik, u yerda na sahna, na biror bir plakat yoki shiorlar, gullar, sharlar osadigan moslamalar bor, tomoshabin o'rindiqlari-yu, to'p darvozasidan boshqa hech narsa yo'q. Rassom o'zining mehnati, fantaziyasi, dunyoqarashi va saviyasi bilan shu maydonga ma'no va mazmun baxsh eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zan joyning o'zidagi sharoit

o‘tkaziladigan tadbirning g‘oyasiga mos kelishi ham mumkin. Bunda rejissyor, ssenarist va rassomning ijod uyg‘unligida chuqur fantaziyalar, badiiy effektlar va boshqa ta’sirli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilishi mumkin. Lekin ko‘p hollarda buning aksi bo‘ladi. Shuning uchun ham rassom butun maydonning masshtabini aniqlab olib “korobka” ga joylashtirib, uni badiiy jihatdan bezab, tadbirga tomoshaviylik effektini berishi lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalarda tadbir o‘tkaziladigan joy qanchalik keng bo‘lsa, unga bezak uchun sarflanadigan sarf-xarajatlari ham ko‘p bo‘lishini hisobga olish zarur. Bunday tomoshalar faqat bir marta o‘tkazilishi, qolaversa, kamer sharoitidagidek bilet sotish imkoniyatlari deyarli yo‘qligi va boshqa jihatlari hisobga olinib, iloji boricha arzon va harakat qilish uchun qulay imkoniyatlar izlanadi. Ammo bu jihozlar bir tomondan “arzonligi” bilan ajralib tursa, ikkinchi tomondan esa konstruksiyalangan, qiziqarli mezonahnalarda qurish imkonini berishi, obrazli, ramziy ma’no beruvchi vosita sifatida qo‘llanmog‘i lozim. Rassom asar muallifining ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyalarini, rejissyorning oliy maqsadini amalga oshirish uchun badiiy bezak orqali o‘zining nuqtai nazarini ifodalash variantlari to‘g‘risida bosh qotirishiga to‘g‘ri keladi.

Rejissyorning rassom bilan hamkorligi jarayonida sahnaviy maydonni konstruksiyalashda ko‘p sonli ishtirokchilarning sahnada paydo bo‘lishi va tezda g‘oyib bo‘lishi, nomerlarning dinamik ravishda almashishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratishni ham hisobga olish zarur.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, rassomning vazifasi faqat sahnani va uning atrofini bezash bilan cheklanmay, balki rang, bezak bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijodiy jarayonlarni, masalan, dekoratsiyalar, butaforiyalar, sahnaviy liboslarni, sahnada ishlatiladigan barcha jihozlarni tanlashda ham ishtirok etadi. Ayniqsa, u rejissyorga obrazli yechimini topishga katta yordam beradi. Hamma rassomlar ham teatrda va ommaviy bayramlarni sahnalashtirishda o‘zining mahoratlarini namoyon eta olmasliklari mumkin.

Alohida olingan tasviriy san'at janrlari (portret, jivopis, grafika, skulptura va x.k.)da ijod qilgan rassomlar ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Ammo teatr yoki bayram va tomoshalar rassomligi vazifasini bajarish uchun faqat rasm chizish yetarli emas. U teatr san'atining barcha qonun-qoidalarini, sahna tuzilishini, arxitektura, grafika, skulptura, qolaversa, san'atning barcha turlarini ranglar jilosi uyg'unligiga erishtira oladigan san'atkor bo'lmog'i lozim.

Teatr san'ati asoschisi K.S.Stanislavskiy o'zining "San'atdagi hayotim" kitobida bir atoqli rassom ijodi haqida shunday deydi: "Artistlarning o'z xohishlari bilan qiladigan, butun postanovka va u yoki bu rolning ma'naviy vazifalari taqozo etadigan sahnaviy jihozlarning muvaffaqiyatli chiqishini, e'tirof etishini angladim. Bu narsa menga teatrga oddiy jivopis – rassom emas, balki ozgina bo'lsada rejissyorlik ishlaridan xabardor hamda san'atimiz va texnikamizning asoslarini, vazifalarini tushunadigan rassom lozimligini yana bir karra tushuntirdi".⁸

Har qanday teatr rassomi sahnaning tuzilishi, qurilmalari va ularni qo'llash texnologiyasini yaxshi bilishi shart. Sahna tuzilishini yaxshi bilish har qanday rejissyorning ishini osonlashtiradi, chunki teatr san'ati sahnasidagi bor imkoniyatlarni, barcha jihozlarni tomosha o'tkaziladigan noan'anaviy sahnaviy maydonga ko'chirish undan katta mehnat talab kiladi"⁹.

Taniqli teatr rassomlaridan G. Brimning ijodiga nazar soladigan bo'lsak, Hamza (hozirgi O'zbek Milliy) nomidagi akademik drama teatrining eng sara spektakllariga rassomlik qildi. U Sofoklning "Shoh Edip"(1969), SH.Sa'dullaning "Afsona yaratgan qiz" (1971), F.Shillerning "Qaroqchilar" (1974), N.V.Gogolning "Uylanish" (1975), S.Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" (1976) va boshqa spektakllarda bosh rassom sifatida qatnashib, yuksak darajada o'z mahoratini namoyon etdi.

⁸ К.С.Станиславский. Санъатдаги ҳаётим. М. 375-б. (Ж.Обидов таржимаси)

⁹ В.Рустамов. Саҳна ифода воситалари.Т., 2011.. 44б.

“G.Brim bir pyesaga dekoratsiya tayyorlar ekan, dramaturgning g‘oyasiga, rejissyorning fikriga va zamonamizning muammolariga jiddiy ravishda quloq soladi. Pyesaga hozirgi zamon ruhi bilan yondoshadi va u orqali davrimizning dolzarb muammolarini ko‘taradi. Rassom asar ustida ish boshlashdan avval tasviriy xulosalarni faollashtirish yo‘llarini izlab topib, pyesa konfliktini aniqlashga, harakatning asosiy chiziqlarini belgilashga alohida e‘tibor beradi”.¹⁰ Haqiqatdan ham, u rassomlik qilgan, tayyorlagan dekoratsiyalarida albatta obrazli yechimni kuzatasiz. Obrazli yechimni aktyorlik va rejissyor mahoratida, musiqa va plastik hal qilganda va boshqa holatlarda kuzatish mumkin. Ammo rassomlik faoliyatda u yasagan dekoratsiya sahnani g‘oyaviy va tasviriy mazmun bilan to‘lirishi kerakki, bunda rassom rejissyor bilan yelkama-yelka mehnat qilib, ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi. G.Brimning “Yulduzli tunlar” (P.Qodirov asari) spektakliga ishlagan dekoratsiyalari rejissyorning g‘oyalari, nuqtai nazarini to‘laqonli ravishda ifodalab beradi. Sahnadagi tarix g‘ildiragi, vaqt almashinishidagi joylarning barcha sharoitlarga moslashtirilishi, orqa fondagi tasvirlarning aktyorlar ijodini boyitib, beixtiyor ravishda tomoshabinlarni ham shu muhitda “yashashga” majbur qilishi, voqelikka munosabatda bo‘lishga undaydi. Bularning barchasini rassom o‘zining boy fantaziyasi, ranglar jilosi, oddiy mato va taxtaga “jon ato etish” orqali ifodalaydi. Yoki “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektaklini olaylik. Asar maishiy mavzuda bo‘lsa ham, unda ko‘tarilgan muammolar dolzarb. Sahnaga qo‘yilgan har bir detal “ishlaydi”, qaysidir ma’noda u yoki bu fikrni ifodalab, uni umumlashtirib, tomoshabinga yetkazadi. Masalan, sahnaga qo‘yilgan supa- Farmonbibi oilasi ma’nosida, supaga qo‘yilgan ustun va undagi “rahmatli Azim sher”ning rasmining osib qo‘yilishining o‘zidan bir necha ma’noni anglatuvchi mazmun topsa bo‘ladi.

Hozirgi kunda respublikamizda o‘tkazilayotgan ko‘pgina bayram, tomosha yoki spektaklning rassomlari haqida so‘z ketganda, Milliy teatrimiz bosh rassomi

¹⁰ Шокиров Ў., Абдуқундузов М. Миллий театримиз намояндалари. Тош. Ислон унив. нашр., 2002, 252-бет

Baxtiyor To‘rayevning nomini birinchilardan bo‘lib sanashimiz mumkin. Uning ustози Georgiy Brim sevimli shogirdi B.To‘rayev haqida gapirib, shunday deydi: “Rassomlik juda g‘aroyib kasb. Kimdir bir to‘da yog‘ochni olib keladi-da, taraqturuq qilib qoqib, dekoratsiya yasab tashlaydi, go‘yo sahnani bezaydi. Kimdir nozik did bilan o‘z sahna shaklini yaratadi, mehrini, muhabbatini ayamaydi, misol farzandini oyoqqa qo‘yayotgan ona kabi. Rassomlik kasbi uchun uning saviyasi va dunyoqarashi katta ahamiyatga ega. B.To‘rayev uchun teatr, bu murakkab jarayon, har bir yangi asar ustida ish boshlaganda u oddiylikdan, an‘anaviylikdan qochib, o‘ziga xos tarzda yondashadi, asl mohiyatini anglashga, ifoda etishga intiladi. Dramaturgiyaning tahlili falsafiy mushohada, pyesaning sahna kengliklarida, teatrlashgan shaklu-shamoyilini yaratish – Baxtiyor To‘rayevning faoliyati ana shunday ijodiy izlanishlardan iborat”.

RAQS: “Ma‘naviy madaniyatda muhim o‘rinni egallagan o‘zbek xalqining raqs san‘ati uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Arxeologik va etnografik tadqiqotlar O‘zbekistonda raqs san‘atining ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda paydo bo‘lganligini isbotlaydi. Ana shu davrlardan to shu kunlargacha raqs san‘ati xursandchilik, bayram, do‘stlik, ommaviylik va boshqa fazilatlarini o‘zida jo qilib, sayqal topib, taraqqiy etib bormoqda. Raqs – insonning mehnat jarayonida tashqi olamdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan va inson gavdasining harakat va holatlari vositasi bilan yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san‘at turidir.

Insonlar bayramlarda o‘z quvonchlarini raqslari orqali namoyon etadilar. Kayfiyati yo‘q inson hech qachon raqsga tushmaydi. Kayfiyatning yuqori cho‘qqisi raqsga borib taqalishi barchamizga ma‘lum. Raqs san‘ati alohida olingan san‘at turi hisoblanib, san‘atlar ichida eng nafis va jozibadordir. Hozirgi kundagi raqs san‘atining yaqqol namunalarini respublikamizda o‘tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarida ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, bayramlar va tomoshalarda raqs san‘atining o‘rni va roli benihoya kattadir.

Xoreografiya bilim yurtlarida raqsning ilk elementlaridan boshlab, partnyor bilan ishlash, obraz yaratish, milliy, klassik asarlari raqslari, turli millatlar raqslari xatti-harakatlari o'rgatilib boriladi. Raqslarning sinxron shaklda sahnalashtirilishi tomoshabin ko'z oldida yangi manzarani gavdalantiradi.

Ommaviy bayram va tomoshalarda raqs harakatlari tomoshaning boshidan oxirigacha davom etib turishi mumkin. Raqslar kompozitsiyadagi voqelikni xarakterlab turadi. Chiroyli, did bilan kiyinib olgan raqqosa qizlarning mayin, jozibali harakatlari, yigitlarning esa jo'shqin va shiddatli harakatlari sahnada tomoshaviylik effektini yanada kuchaytiradi, tadbir g'oyasini ifodalaydi, sahna bezagi, musiqa va raqs uyg'unligiga erishiladi, natijada tomoshabin bundan estetik zavq oladi

Keng masshtabli maydonni badiiy jihatlar bilan to'ldirish ancha murakkab jarayondir. Dekoratsiyalar, sharlar, afisha, kartinalar, shiorlar, gullar, chiroyli did, dizayn bilan qurilgan sahna, chiroqlar va boshqalar tomosha o'tadigan joyning asosiy badiiy bezagi uchun xizmat kiladigan vositalardir. Turli rang-barang liboslar kiyib olgan yigit qizlarning raqs harakatlari esa bu jihatlarni yanada to'ldirib, boyitadi. Raqs san'atining ifoda vositalari – plastik harakatlar, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, ko'z qarashlari, mimikalari orqali obraz yaratishda namoyon bo'ladi.

O'zbek raqsi - Sharqning madaniyat tarixi ming yillar bilan o'lchanadigan Hindiston, Eron, Yaponiya singari mamlakatlarida ravnaq va shuhrat topib kelgan raqs san'atidan sira qolishmaydigan darajada yaxshi rivojlangan barkamol san'atdir.

O'zbek raqsining qadimiyligini O'zbekiston territoriyasidagi qoyalardan topilgan tasvirlar va arxeologik topilmalar asosida aniq isbot qilib berish mumkin. Toshlarga chizilgan xilma-xil ibtidoiy suratlar orasida tosh va bronza davriga taalluqli niqob kiygan raqqos hamda bir guruh o'yinchilarning tasvirini ko'rish mumkin. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent raqqos va raqqosalarining shuhrati V asrdayoq butun Sharqqa yoyilganligi, o'zbek raqs ustalarining Sharq

xalqlari raqslaridan ta'sirlanish bilan bir qatorda ularga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi to'g'risida aniq dalillar mavjud. O'zbek raqs san'ati xalq raqsi va professional raqs sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Professional raqs dastlab marosimlar bilan bog'liq bo'lgan. Taxminan IV asrdan boshlab marosimlardan chiqib, inson faoliyati va ruhiy olamini aks ettiruvchi san'at sifatida ko'zga tashlandi. Arablar va mo'g'ullar istilosi raqs san'ati rivojiga ham keskin zarba berdi. XIV asrning ikkinchi yarmidan professional raqs yana o'z qaddini tiklay boshlaydi. Xususan, Navoiy zamonida Xuroson va Movarounnahrda raqs taraqqiy topdi. Professional raqs bilan bir qatorda xalq o'yinlari saqlanib, rivojlanib bordi.

Xullas, raqs san'atimiz mehnat, marosim va e'tiqod bilan bog'liq badan o'yinlaridan "Katta o'yin", "Maqom o'yin", "Qarsak o'yin" kabi monumental raqs turkumlarigacha bo'lgan katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, xalqimizning avlod-ajdodlari ma'naviy-madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Hukmdorlar, bosqinchilar mehnat ahli orasidan yetishib chiqqan iste'dod egalari yaratgan raqs san'atini o'z mafkuralari tomon burishga, undan o'z manfaatlari, ayshu ishratlari yo'lida foydalanishga, raqqos va raqqosalarni kamsitish, tahqirlash, insoniy huquqlarini poymol qilishga tinmay urindilar. Ruhoniylar esa raqs san'atini shakkoklik deb e'lon qildilar. Ammo xalq raqsi o'z egasi - mehnatkash ommasiga xizmat qilishda davom etdi, uning ilg'or an'analari avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yashadi va bizgacha yetib keldi.

O'zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat hamda marosim bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, tog'liklar orasida rasm bo'lib kelgan qadimiy o'yinlardan tashqari xalq-professional raqs san'ati ham mavjud bo'lib, unda ko'pgina xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qilib turuvchi Farg'ona, Buxoro, Xorazm uslub maktablari qaror topdi.

Har bir o'zbek raqs maktabining o'zi bir olam. Ularga sodda va lo'nda qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: Farg'ona raqslariga goh sho'x va tetik, goh mayin oquvchi harakat, gavdani bir oz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma'no kashf etuvchi chiroyli qo'l harakatlari xos bo'lgan. Buxoro o'yinchilari esa

odatda tovonni urib-urib, tizzani bukib, ayni chog‘da gavdani g‘oz tutib, viqor bilan, kift titratib, aniq shaklli, puxta qo‘l harakatlari bilan o‘ynaganlar. Buxoro raqsida katta doiradagi charxlar muhim o‘rin tutgan. Xorazm raqsi uchun esa tizzalarni sal-pal bukib, kiflarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli-tuman chiroyli shakllar yasab, o‘ynoqi, sho‘x, otashin o‘ynash xarakterlidir. Xorazmda qayroq bilan o‘ynash keng rasm bo‘lgan. O‘zbek raqslarida obrazlilik, mazmundorlik hal qiluvchi rol o‘ynaganki, bu yetakchi xususiyat barcha maktab va uslublarni bir-biriga bog‘lab, yagona o‘zbek raqsini maydonga keltirgan. Har biri bir olam, kattakon tarix bo‘lmish bu maktablarning vujudga kelishi, kamol topishi, muayyan shakl hamda qonuniyatga ega bo‘lishida xalq baletmeysterlari hamda o‘sha zamon zo‘ravonlari tomonidan tahqirlangan raqqos va raqqosalarning xizmati beqiyosdir.

Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, ularning vakillari bir-birlari bilan ijodiy tortishib kelishgan, albatta. Xalq o‘yinchilari, xususan, Farg‘ona raqqos va raqqosalari ijodiy faoliyatining mazmuni boyib, ahamiyati oshdi. Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi bir qator shaharlarda nisbatan yirik raqs truppalari (ansambllari) tashkil bo‘ldi, qaysiki O‘rta Osiyodagina emas, undan tashqarida ham o‘zbek raqs san’atini munosib namoyish etdi. Jumladan, 1905 yilda shahrixonlik Asqar hoji Haydaraliyev rahbarligidagi raqs ansambli Zakavkazye mamlakatlarida uzoq gastrolida bo‘ldi. Ansambl programmasini o‘z davrining dongdor raqqosasi Hamdamxonning chiqishlari bezadi. U o‘zbek klassik raqslarining butun boyligi va nafosatini yuksak saviyada tarannum etish bilangina cheklanib qolmay, O‘zbekistonga bir qator ozarbayjoncha, lezgincha, gruzincha o‘yinlar o‘rganib qaytdi.

Umuman olganda, o‘tmishdagi o‘zbek raqsi ikki katta nahrndan iborat bo‘lib, asrlar davomida yashab kelgan: birinchi nahr - bu xalq orasida iste’molda bo‘lib kelgan “o‘yin” deb ataluvchi raqslar, ikkinchi nahr-professionallar tomonidan ijro etilib kelingan va ko‘pincha turkum xarakteriga ega bo‘lgan “raqs”lardir.

Undan tashqari, raqs san’atining sifat belgilarini tasniflashda uning taqlidiy raqslar (hayvon, qush, baliq va o‘simliklar harakatlarini ifodalash, inson xatti –

harakatlaridan, ya'ni jonli tabiatdan badiiy nusxa ko'chirish), tasviriy raqslar (ovchi, baliqchi, temirchi, hunarmand faoliyati jarayonlarini yoki biror urush janglarni aks ettiruvchi), lirik raqslar (inson tuyg'ulari, hissiyotlari, kechinmalarini bevosita yoki obrazli ifodalovchi), estetik raqslar (kuchli hissiyotlarni ifodalovchi), udum raqslar, marosim raqslari (so'z san'ati, aktyorlik, sirk, musiqiy va raqs san'atidan tuzilgan ko'p qismli tomoshalar syujetlarining tarkibiy qismi sifatida) va professional raqs turlarini ajratish, o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlardir.

Konsert zallarida, teatr sahnasida, madaniyat uylari saroylari sahnasida, xullas, an'anaviy sahnaviy muhitda yakka, juft va ommaviy sahnalarda ko'pi bilan 20-30 kishi qatnashishi mumkin. Noan'anaviy sahnalarda, masalan, sport maydonlari, sirk arenasi, ko'chalarda, bog'larda, xiyobonlarda o'tkaziladigan bayram va tomoshalarda ularning soni yuz (ba'zan undan ham ortiq) barobarga ko'payadi. Ommaviy bayram va tomoshalarda baletmeyster rejissyor bilan barobar ishlashga to'g'ri keladi. Chunki maydonda bo'layotgan voqealarning deyarli barchasi raqs, plastik xatti-harakatlar orqali namoyish etiladi. Masalan, xonanda ham sahnaga chiqqandan keyin unga ozmi-ko'pmi raqs harakatlari elementlarini qo'llashi kerak bo'ladi.

Teatrlashtiris: Respublikamizda turli bayram, yubiley, tantanalarni yuqori saviyada o'tkazishga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibori uning kundankunga gullab-yashnashiga, yangidan yangi shakllari ustida izlanishlar olib borishga sabab bo'lmoqda. Bayramlarni tashkil etishning yangi variantlari, yangicha usullarini takomillashtirish bo'yicha joylarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy guruhlarning mehnatlari ham beqiyosdir. Bayram va tomoshalarni xalqimizga yaxlitligicha badiiy vositalar orqali ifoda etish, targ'ib qilish va yetkazishda san'at ahli hormay-tolmay mehnat qilib, samarali natijalarga erishmoqda.¹¹

¹¹ В.Рустамов. Замонавий байрамлар режиссураси муаммолари. Т., 2013й. 456

“Xo‘sh, teatrlashtirish o‘zi nima? Bu avvalo aniq maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan usuldir. “Teatrlashgan tadbirlarning alohida qismlari” mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar nafaqat tadbir temasi va g‘oyasi asosida, balki kompozitsion tuzilishi jihatidan ham birlashadi”, - deb yozadi Usmon Qoraboyev o‘zining “Badiiy–ommaviy tadbirlar” kitobida.

Hozirgi kunda texnika taraqqiyoti rivojlangan bir davrda tadbirlarni tashkil etishda oddiy usullardan foydalanishni bironta tashkilotchi o‘ziga ep ko‘rmaydi. Chunki hozirgi tomoshabin avvalo o‘ziga nisbatan, qolaversa o‘sha tadbir uchun juda talabchandir. Tashkilotchi-rejissyor tadbir yoki tomoshani tashkil etganda qandaydir oddiy emas, hammani qoyil qoldiradigan usullarni izlab topishga harakat qiladi. Masalan, xalqimizning ma’naviy jihatdan ongi va salohiyati oshib, takomillashib borgan sari oddiy konsert dasturlari uni qoniqtirmay qo‘ydi. U qandaydir yangi original effektlar, turli rohatbaxsh, zavqlanish imkoniyatlarini yaratish, o‘zini ma’naviy rivojlantirish va estetik jihatdan tarbiyalanish kabi dolzarb maqsadlarni qo‘yadi. Shu jihatlarni hisobga oladigan bo‘lsak, oddiy konsert dasturidan ko‘ra teatrlashtirilgan konsert, bayram yoki tomoshalar bu talablarga javob bera oladi. Chunki bunda san’atining ko‘pgina ifoda vositalari ishtirok etadi. Oddiy konsert dasturidan ko‘ra teatrlashtirilgan konsertning ta’sir qilish kuchi ko‘proqdir. Bunga misol qilib, rejissyor F.Ahmedovning sevimli san’atkor, xonanda Rustam qori Tursunovning xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazgan konsert dasturini keltirish mumkin. Bunda rejissyor teatrlashtirishning original usullaridan mohirona foydalana olgan va buning natijasida teatrlashtirilgan konsert tomoshabinlar xotirasida chuqur taassurot qoldirib, ular xotirasida bir umrga muhrlanib qolgan. Yoki, yaqindagina bo‘lib o‘tgan xonanda Larisa Moskalyovaning konserti bunga yorqin misol bo‘la oladi. Uning konsert dasturini bemalol konsert-spektakl desa ham bo‘ladi. Chunki unda tanlangan repertuar ma’lum kompozitsiya va voqealar asosiga qurilgan bo‘lib, tomoshabinga zavq bag‘ishlagan.

Shunday qilib, teatrlashtirilgan konsert boshqa konsert shakllaridan ana shu jihatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda “Istiqlol” san’at saroyida bo‘layotgan yakkaxon xonandalarning konsert dasturlarini to‘la holda teatrlashtirilgan deya olmaymiz. Ammo bu maskanda konsert dasturlarini namoyish etish uchun barcha shart-sharoitlarning - chiroqlar, pirotexnik vositalar, turli effektlarni yaratuvchi texnik va lazer qurilmalari, ovoz kuchaytirgich apparaturalari, sahna texnikasidan unumli foydalanish va boshqa jihatlarni mavjud bo‘lsa ham, uni teatrlashtirilgan konsert deb bo‘lmaydi. Bunday konsertlarning ham o‘ziga yarasha ijobiy tomonlari ko‘p. Faqat uning janrini, konsert shaklini aniqlaganda ehtiyot bo‘lish kerak. Teatrlashtirilgan konsert bo‘lishi uchun esa yuqorida sanab o‘tgan talablarga javob berishi kerak.

Ko‘pincha konsertlarni tashkil qilishda bir qiziq savolga duch kelib qolamiz: “Konsertga rejissyorning nima keragi bor?”

Rejissyor nafaqat teatrlashtirilgan konsert uchun, balki oddiy konsert uchun ham kerak. U dastur ustida ish olib borganda, birinchi navbatda qo‘shiqlarni to‘liq eshitib oladi va uning ketma-ketligini aniqlaydi. Unga kerakli, badiiy ifoda va ta’sirchanlik jihatlarni qo‘shib, konsertni mazmunini boyitadi.

Taniqli olim U. Qoraboyev o‘zining “O‘zbekiston bayramlari” kitobida: "Konsertni teatrlashtirishda ikki muhim narsa bor: birinchidan, butun konsert programmasini maxsus ssenariy asosida umumiy g‘oya va mavzuga bog‘lab badiiy shaklda, ma’lum kompozitsiya asosida (boshlanishi, rivojlanishi va yakuni bor holda) tashkil etish kerak. Ikkinchidan, konsertning samarasini oshirish maqsadida, ko‘proq emotsional-ta’sirchan vositalar (kino, slaydlar, suratlar va h.k.)dan foydalanish mumkin”, deb yozadi. Bir so‘z bilan aytganda, teatrlashtirilgan konsert faqat qo‘shiqlardan iborat bo‘lmay, san’atning barcha turlaridan o‘rinli foydalanishni taqozo etadi.

"Teatrlashtirilgan tadbirda – eng avvalo, yagona g‘oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilish bo‘lishi kerak. Teatrlashtirilgan tomoshalarda kompozitsion syujet: prolog, asosiy voqea, qarama-qarshilik, voqealar rivoji,

kulminatsiya va final komponentlardan tashkil topishi lozim. Teatrlashtirilgan tomosha teatr va dramaturgiya qonunlari asosida tuzilgan badiiy obrazli kompozitsiyaga ega bo'lgan madaniy-ommaviy tadbirlardir".¹² Tomoshalarning bunday shakli o'zining mohiyatiga ko'ra dramaturgiya va teatrning umumiy qonun-qoidalariga to'liq bo'ysunadi. Teatrlashtirilgan bayram tomoshasining yorqin namunasiga Toshkent viloyati Olmaliq shahrida o'tkazilgan G'alabaning 50 yilligiga bag'ishlangan B.Sayfullayev rejissyorlik qilgan bayram tomoshasi misol bo'la oladi.

Tadbir boshlanishdan oldin Olmaliq shahridagi markaziy maydonning bir qancha maxsus joylariga urush yillarida ishlatiladigan ko'chma oshxonalar (polevaya kuxnya) o'rnatilib, idish (kotelok)larda maxsus ovqat (bo'tqa) tayyorlanib, urush qatnashchilarini spirt bilan mehmon qildilar. Fonda urush davri qo'shiqlari yangrab turdi. Bayram ulkan san'atkor Halima Nosirovaning mehnat mavzusiga bag'ishlangan qo'shig'iga xoreografik kompozitsiya bilan boshlanadi, ya'ni o'zbek xalqining tinch turmush tarzi aks ettiriladi. Levitanning urush boshlanganligi to'g'risidagi xabarning eshittirilishi bilan frontga kuzatish bloki boshlanadi. Kuzatish sahnasi «Muqaddas urush» (Svyashennaya voyna) qo'shig'i fonida teatrlashtirilgan usul orqali amalga oshirilgan. Ushbu tomoshada «Mungli ona» monologi yangragandan so'ng «Oqqushlar» (Juravli) qo'shig'ining fonida qo'llarida guldastalar ushlagan 12 ta qiz xuddi uchayotgan oqqushlar timsolida «Mangu olov» poyiga tiz cho'kib, guldastalar qo'yadilar.

Final sahnasida esa g'alaba qozongan soldatlar yordamida piramida shaklida Reyxstag binosi metaforik uslubda qurilib, unga G'alaba bayrog'i o'rnatiladi va «G'alaba kuni» (Den pobedi) qo'shig'i yangraydi. Usti ochiq GAZ-69 avtomashinalarga mindirilgan urush faxriylari tantanali ravishda maydon (parad) dan o'tadilar. Parad nihoyasidagi mushaklarning otilishi esa xuddi urush yillaridagi g'alabani eslatuvchi manzarani paydo etgan.

¹² У.Қорабоев. Бадий-оммавий тadbirlар. Т. Ўқитувчи. 1986 , 159- б.

Tadbir o‘tkazilayotgan maydonning ikki tomonida fon guruhi qatnashchilarning qo‘llaridagi turli rangli lentalari bilan joylashtirilishi tomoshaning tomoshaviyligini yanada oshirishiga yordam berib turdi. Ushbu teatrlashtirilgan bayram tomoshasi o‘zining badiiyligi, ifodaviyligi va originalligi bilan olmalikliklar qalbida o‘chmas iz qoldirdi. Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Teatrlashtirish – real voqelikni badiiy jihatdan ifodalanishi hamdir. Hayotiy materialni teatrlashtirish – tarbiyaviy vosita nuqtai nazardan ham qaraladi, chunki u tomoshabinni axborotni qabul qilish shart-sharoitlarini faollashtiradi va uning shu tomoshaga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Yana bir narsani hisobga olish kerakki, teatrlashtirish usullarini barcha tadbir yoki tomoshaga zo‘rma-zo‘raki tiqishtirish mumkin emas. Teatrlashtirish – mexanik ravishda majburan kiritilgan parcha, bo‘lak yoki kompozitsiyaning bir bo‘lagi (masalan, prolog yoki kulminatsiya) sifatida emas, balki butun voqea, syujet, tomosha mobaynida tomoshabinni tarbiyalovchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, tadbir yoki tomoshaning asl mohiyatini, mag‘zini chaqib olishga yordam beruvchi vosita vazifasini bajarmog‘i lozim. Teatrlashtirishda sahnadagi voqelikni tomoshabinlarga yetkazib berishdagi barcha imkoniyatlar ifodaviy vositalar orqali amalga oshiriladi.”¹³

¹³ Қ.Рустамов. Саҳна ифода воситалари. Т., 2011. 51бФ

II. BOB. MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

2.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unub-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim.¹

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham ushunday bo'ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta'lim berish, ularni mehr-oqibatli, ilmparvar sahrvatli, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga yetkazish jamiyatimizning asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i lozim.

Bolalar tarbiyasi bilan oila, bolalar bog'chasi, maktab va boshqa bilim yurtlari shug'ullanishi barchaga ma'lum. Biroq ularning, ayniqsa, bilim yurtlarining tasarrufidan tashqarida yoshlarning o'qishdan, ishdan tashqarigi bo'sh vaqti qolmoqda. Bo'sh vaqgda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shug'ullanmovda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlarga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashg'ul bo'lishmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar (ayniqsa, klub, madaniyat saroyi, madaniyat uyi kabilar)ning imkoniyati kattadir. O'quv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishga ko'mak beradi. Biroq joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda.

Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida e'tibor berishmayapdi. Natijada madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlarni ma'naviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati kerakli darajadan past bo'lmoqda.

¹O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Biz quyidagi qo'llanmada yuqorida qayd qilingan muammolardan kelib chiqib, madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlash masalalariga to'xtalarniz. Mazkur matn Madaniyat institutining «Ijtimoiy-madaniy faoliyat» fakulteti va «Madaniy dam olish tashkilotchisi» bo'limlari talabalariga o'quv-uslubiy qullanma sifatida yaratilgan.

Madaniy-ma'rifiy faoliyati muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, badiiy xavaskorlik ishlarni va bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol uynamoqda.

Ma'lumki, klub muassasalari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu kungilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimni, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xullas, klub muassasalari, yoshlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish.

Havaskorlik ijodini uyushtirish.

Madaniy dam olishni tashkil qilish.

Klublarda yoshlar uchun tadbirlar uyushtirishdan oldin mahalliy yoshlarning:

- ma'naviy extiyojlari,
- qiziqishlari,
- bilim darajalari, kasbi,
- madaniy saviyalari,
- ijodiy imkoniyatlari,
- vaqt byudjeti va bo'sh vaqti,
- tashabbuskorligi va uyushqoqligi

kabi ko‘plab omillar hisobga olinmog‘i darkor. Aks holda klubda tayyorlanadigan tadbirlar yoshlar uchun qiziqarli bo‘lmay qoladi. Mazkur omillarni hisobga olish, o‘rganish, bilish uchun yoshlar o‘rtasida yozma va og‘zaki so‘rovlar, so‘hbatlar, ko‘zatishlar o‘tkazilishi lozim. So‘rovlarda yoshlarga:

qaysi mavzular,
qanday shakllar (tadbirlar),
qaysi ta'sirchan g'oyaviy-badiiy va texnik vositalar yoqishini
o‘rganmoq lozim.

Yoshlarni qiziqtirgan mavzularni muayyan mantiqiy tizimga solib, ularning mazmuniga mos shakllar tanlab, yoshlar uchun maxsus tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Zamonaviy yoshlarni quyidagi mavzular qiziqtirishi mumkin:

1. Tarixiy mavzular.
2. Milliy qadriyatlar.
3. Xalq an'analari.
4. Odob, axloq.
5. Kiyinish madaniyati.
6. Do‘stlik va do‘stlikni saqlash.
7. Qizlar va yigitlar munosabatlari.
8. Muhabbat, sevisish va sevilish.
9. Bo‘sh vaqtni foydali o‘tkazish.
10. Mehmondo‘stlik.
11. Ozodagarchilik va tozalik.
12. Ichkilikbozlik va giyohvandlik oqibatlarini.
13. Oila fayzi va hokazolar.

Klub xodimlari yoshlarni qiziqtirgan mavzuni mantiqiy tizimga solganidan so‘ng. Ularga qanday shakllar-tadbirlar yoqishini ham aniqlash kerak. Klub muassasalarining ishi, shakllari esa ko‘p va rang-barangdir: ma'ruza, ma'naviy muloqot, doklad, axborot, suhbat, seminar, munozara, konferensiya, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, og‘zaki, jurnal, kecha, konsert, spektakl,

ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnavallar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya, madaniy sayr, viktorina, ko'rgazma, ko'rik-tanlov va hokazolar.

Aytaylik, yoshlar ko'proq dam olish kechalari, ijodiy bahs, uchrashuvlar, diskoteka, estrada konsert, teatrlashgan tomosha, xalq sayllari, sayohat kabi shakllarni tanlashdi. Klub xodimlari ko'proq ana shu shakllardan foydalanmog'i kerak.

Yoshlarni qiziqtirgan shakllar aniqlangandan so'ng, klub xodimlari mahalliy joydagi yoshlar qo'mitasi bilan birgalikda yillik tadbirlar rejasini tuziladi. Rejada tadbir o'tkaziladigan sana, tadbir nomi, shakli, o'tkazilish joyi va javobgar shaxslar ko'rsatiladi.

Tadbirlar rejasi yoshlar ehtiyoji va mahalliy sharoitdan kelib chiqib boyitilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Qanday bo'lmasin mahalliy madaniyat uyi va yoshlar qo'mitasi bilan rejalashtirilgan tadbirlar yoshlarni qiziqtirish, mavzuiga jalb etish lozim. Vaqt o'tishi bilan klub tadbirlari ham yoshlar sinovidan o'tadi. Shundan kelib chiqib kelgusi yilgi rejada qaysi tadbirlarga ko'prok, e'tibor berishni hayotning o'zi ko'rsatadi.

Yoshlar uchun tadbirlar tayyorlash ma'suliyatli va murakkab jarayondir. Biz mazkur ishda faqatgina uning ayrim tomonlariga diqqat jalb etib, yoshlarni madaniy dam olishi, yoshlar klubi va yoshlar saylini tashkil qilish masalalariga to'xtalarniz xolos..

«Bo'sh vaqt-ijtimoiy boylik» deyishadi.U insonning qobiliyatlarini takomillashtirishi, bilim olishi, ma'naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo'lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog'liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir.

Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha klub tadbirlarida sodir bo'ladi. Biroq, klub shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, xordiq chiqarish asosiy vazifa qilib quyiladi.

Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, klub, madaniyat va istirohat bog'lari yoshlarning bo'sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy havaskorlik tugaraklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalari, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar bo'sh vaqtida qatnashadigan tadbirlar doirasi anchagina keng. Ular orasida muloqotli, kungilochar - «Dam olish kechasi», «Shanba oqshomida», «Kulgi kechasi», «Do'stlik kechasi», «Qizlar davrasida» kabilar; San'at bilan bog'lik bo'lgan - «She'riyat kechasi», «Doston kechasi», «Qo'shiq va raqs oqshomi», «Musik;a ohangi», «Teatr ko'zgusi» kabilar; Bayramona dam olishga oid sayllar - «Bog sayli», «Tog' sayli», «Lola sayli» kabilar;

Xalq o'yinlari, musobaqalarga boy «Sog'lik - tuman boylik», «Azaliy o'yinlar» kabi tadbirlar keng sho'hrat qozongan.

Madaniyat va istirohat bog'lari va klublarida uyushtiriladigan tadbirlar foydalanilgan vositalar turli tavsiya xarakterida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ma'rifiy-huquqiy, musiqali-raqsli va badiiy-adabiy tavsifdagi tadbirlarni tashkil qilish yaxshi natija beradi. Ma'rifiy-xordiqli tadbirlardagi yangi axborotlar, ma'lumotlar, bilimlarni olish, xordik, chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketadi.¹

Odatda bunday dasturlar ikki qismdan tashkil topadi: birinchi bo'limda yoshlarni qiziqtiradigan mavzu tanlanib, bunda axborotlar badiiy shaklda tomoshabinlarga havola qilinadi. Ko'pincha bu qismga odamlarni uylantiradigan va hayajonga soladigan muammolar ham olinadi. Dasturning ikkinchi qismida esa maroqli dam olish uchun unlab turli qiziqarli o'yinlar, topishmoqlar, viktorinalar,

¹www.ziyouz.com

qo‘shiqlar va hokazolar foydalaniladi. Musiqali-raqsli tadbirlar, asosan, musiqa, ashula va albatta raqslardan tashkil topadi.

Bunday tadbirlarda bu san‘at turlarining eng yaxshi namunalari targ‘ib qilinadi. Unda eng yaxshi raqs uchun musiqa bilimdonlari va sevimli qo‘shiq ijrosi uchun omma o‘rtasida tanlovlar o‘tkazilishi mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarni ikki turi bor, ularning biri kichik auditoriya uchun mo‘ljallanib, undan musiqa fonotekasidagi texnik vositalaridan foydalaniladi, ikkinchisiga esa kichik estrada ansambli taklif qilinib o‘tkaziladi. Shuningdek, musiqa-raqs dasturlari o‘zbek va chet el musiqasi, raqs san‘atiga bag‘ishlanib, unga mashxur kompozitor-bastakorlar, ashulachilar va raqs ustalarini taklif qilish mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarning asosiy vazifalari san‘atni targ‘ib etish, yoshlarni musiqa va raqs ijodiga oshno qilish, ularga ma‘naviy ozuka berish.

Badiiy-adabiy tadbirlar - adabiyot va san‘at janrlaridan tashkil topgan dasturlardir. Bunday tadbirlarda badiiy-emotsional vositalar: badiiy so‘z, she‘r, monolog, qo‘shiq, ashula, raqs kabilar muayyan mazmunga bog‘lanib teatrlashtiriladi. Adabiy-badiiy tadbirlar foydalanadigan vositalarga boy bo‘lgani uchun, ular odatda ijtimoiy-falsafiy muammolarga ham bag‘ishlanib, yoshlarni tarbiyalashda katta rol uynaydi. Bunday tadbirlar tashkil qilishda tashkilotchilar bilim doirasi, dunyoqarashi, qobiliyatlari va tashabbuskorligi muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yoshlarning ma‘naviy kamolotiga e‘tibor berish, kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida xalq an‘analari va qardosh xalqlar tajribasi asosida joylarda yoshlar talab va ehtiyojlarini hisobga olib maxsus sayl o‘tkazilsa yaxshi bular edi. Yoshlar saylini - 24 aprel Yoshlarning xalqaro birdamlik kuni, yoki 10 noyabr – Butun jaxon yoshlar kuni yoki mahalliy sharoitga qapa6 boshqa kun uyushtirilsa bo‘ladi.

Bayram boshlanishidan oldin maktablar, tarbiya muassasalari, o‘quv yurtlari, mehnat jamoalarida maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

Mahalliy yoshlar qo‘mitalari turli tadbirlar, jumladan, yosh rassom, yosh qo‘shiqchi, yosh shoir, yosh raqossa tanlovlarini rejalashtirsa bo‘ladi. Bayramning

ochilish qismida yoshlar qo'mitasining raisi, kotiblari, mahalliy hokimiyat rahbarlari, yoshlar hay'ati, faoliyati haqida so'zlaydilar, ularga o'z istaklarini bildirishadi. So'ng katta sayl boshlanadi. Unda har bir o'quv yurti o'z ijodi, san'atini namoyish qiladi.

Yoshlar o'rtasida qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi.

Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko'rik-tanlov g'oliblari taqdirlanadi, ularga bag'ishlanib ko'y va qo'shiqlar ijro etiladi.

Bo'sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o'zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo'ladi. Buning uchun madaniyat muassasalarda yoshlar to'planadigan, so'hatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog'i lozim. Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar klublari», «Yoshlar ijodiy guruhlari» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, madaniyat o'yi qoshida keng qamrovli faoliyat olib boruvchi «Yoshlar klubi» tashkil qilish ijobiy natija berishi mumkin. «Yoshlar klubining a'zolari o'zlarining ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida turli shakldagi maroqli va mazmunli tadbirlarni uyushtirishi mumkin.

Shuningdek, ular nafaqat o'zlarining, balki mahalliy yoshlarning madaniy dam olishiga yordam berishi diqqatga sazovordir. «Yoshlar klubi»ni tashkil qilish borasida quyidagi metodik maslahatlarni tavsiya etsa bo'ladi: «Yoshlar klubi» maxsus reja va dasturlar tuzib, ish olib boradi, klub a'zolari dam olish kechasi tashkil qilib, unta har gal yangi jamoa a'zolari, yosh ishchilar, talabalar, yuqori sinf o'quvchilari va boshqalarni taklif qilsa bo'ladi. «Yoshlar klubi»ga, albatta, rais, tashkilotchi va bo'limga javobgar shaxslar saylanishi kerak.

Klub raisi - umumiy raxbarlik qilib, yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqtni rejalashtiradi. Raisga yordamchi - maxsus tashkilotchi ham belgilanadi. Eng qiziqarli ishni badiiy qismga javobgar shaxs olib borishi mumkin. U har bir yig'ilishning badiiy programmasini tuzadi. U uyushma a'zolarining ijodiy

qobilyatlaridan kelib chiqib, she'r, hikoya, ashula, askiya, latifa, topishmoqli uyinlarni kim va qachon aytishini belgilaydi.

Bunday rahbar ishning diqqatiga sazovor tomoni shundaki, u uyushma a'zolarining u yoki bu sohadagi ijodiy qobilyatini ochadi. Uyushma a'zolari rioya qilishi shart bo'lgan «Nizom» qabul qilinishi -bu intizom ishlarini yaxshilashga asos bo'ladi. Intizomga javobgar shaxs - bu ishlarni nazorat qilishi bilan birga, yig'ilish bo'ladigan joyni tartibga keltiradi.

«Yoshlar klub»larining foydali tomonlari shundaki, u eng avvalo, bshlarni yaxshi hordiq chiqarishga, muloqot, so'hat natijasida ma'naviy boyishga, ijodiy qobilyatlarini namoyish qilish va rivojlantirishga ko'mak beradi.

«Yoshlar klubi» faoliyatini uyushtirish va ularni ijtimoiy foyda keltiradigan darajada tashkil qilishga yordam berish - bu mahalliy madaniyat muassasalarining jiddiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

Yoshlarning ravnaqi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan bo'sh vaqtdan samarali foydalanishda madaniy-hordiqiy tadbirlarning ahamiyati benihoyat kattadir.

Yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlashda madaniy-ma'rifiy muassasalar va yoshlar qo'mitasi hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Tashkilotchilar yoshlar uchun tadbirlar uyushtirayotganida an'analar, tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda yangilik, ijodkorlik, tashabbuskorlikka aloxida e'tibor bermoqlari zarur. Yoshlar ijod va yangilik shaydosi ekanligini unutmashlik kerak.

Shuni qayd qilish kerakki, turli joyda yoshlarni vaqti, ehtiyoji, qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. Bir hududda sho'hrat topgan tadbir, boshqa joyda qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Shuning uchun har joyning o'z tadbirini topishga intilish kerak.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chuqur ma'noli, mazmunli va shaklan go'zal va qiziqarli tadbirlar ko'pchilikka yoqar ekan. Joylarda yoshlarning madaniy dam olishini uyushtirishda tadbirning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, yoshlar uchun tadbirlar tashkil qilishda

mahalliy sharoit, madaniyat muassasalarining moddiy, ma'naviy, badiiy va texnik imkoniyatlaridan hamda badiiy havaskorlik jamoalarining ijodidan samarali foydalanmoq lozim.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamalakatga aylandi. O'zbek davlatchiligi rivojidadagi tarixiy tajribalarga tayangan holda, insonparvar, demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda yoshlarni faol ishtirok etishlari endilikda hayotiy dolzarb masala bo'lib turibdi.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini xam o'rni beqiyosdir.

Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb xisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir. Xozirgi kunda madaniy - ma'rifiy muassasalar respublikamiz madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru -

muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaxolatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Xalq ijodi-tarixiy taraqqiyot davomida xalqning idealariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo'lib kelgan.

Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari xamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy maxorati bilan bir qatorda ma'naviy saloxiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimov fikriga to'htalish darkor- "Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz."¹ Bu bevosita madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyati doirasida xalq amaliy san'ati namunalari, texnik ijodiyot, badiiy adabiyot orqali milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bu bevosita yoshlar hayot faoliyatining maqsadli yo'naltirishda ulardan foydalanish ham moddiy ham ma'naviy ta'minot bazasiga aylantirishdan iborat faoliyat faqatgina ta'lim muassasalarininggina vazifasi emasligi, bu jarayon aynan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat turi va maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerakligini yana bir karra isbot etadi.

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning

¹Karimov I.A. Barkamol avlod–kelajagimiz tayanchi-T.: Ma'naviyat. 2010.-192.-b.43.

mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini beihiyor ta'minlaydi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'ziga haqiqiy ta'surotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasi bo'ladi.

Xar qanday sharoitda xam barcha millat va xalqlar o'zining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga muxtojlik sezadi. Ma'naviyat – inson uchun mavjudlik belgisi. Ma'naviy boylik – u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muxim omildir. Ma'naviyati yo'q xalqning o'zi yo'q. Shu bilan birga xar bir xalq ma'naviyati xam bir xil darajada emas. Shu o'rinda mamlakat yurtboshisining «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilarniz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»,—degan fikrlarida juda mantiq va ma'no bor. Biroq, sho'rolar mustabid tizimi sharoitida o'zbek milliy madaniyati xaddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura maddoxlari xam o'zbek xalqini qul qilish uchun eng avvalo shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar.

Ta'kid etish joizki, ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini xech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. To'g'ri mustamlakachiliklar natijasida o'zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma'naviy ildizlarini qirqib tashlashga urinildi.

Lekin ular buning uddasidan chiqa olmadilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga yaqin va uzoq tarix guvoxdir. Endigi vazifa – ma'naviy hayotdagi barcha yo'qotishlarning o'rnini qoplashdan iborat bo'ldi. Bu narsa xalqimizning ma'naviyat va ma'rifatga muxtojligi va uning tanqisligi bilan belgilandi. Kishining o'zligini anglashi, o'z sha'nini ximoya qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'lmog'i, qalbining tubida, jinday bo'lsa-da, ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim.

Ana shunda odam gunoxdan xazar qilish, barcha ne'matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalanish yo'lini tutadi. Nojo'ya xatti-xarakatlari uchun tavbat-zarru qilish zarurligini anglay boshlaydi.

O'zbek xalqi aynan shu yo'ldan bordi, o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo'qotilgan, taptalangan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni uyg'otdi.

Istiqlol yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining butun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi.

Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy axamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Ayniqsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emasdi, zero mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maqsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi.

Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini xalq etish, tomoshabinlarni bezdiradigan saxna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi spektakllarni fuqarolar xukmiga xavola etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Xozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 36 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Unga binoan, O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini xar tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustaxkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy isloxotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash, respublika Madaniyat ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy saxnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlar chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

«O‘zbekteatr» birlashmasi o‘zining teatr tashkilotlari xamda mintaqaviy bo‘limiga ega bo‘lib, mulkchilik shakllaridan va qandaydir muassasaga idoraviy daxldorligidan qat’i nazar mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr studiyalarida xalq teatrlari va boshqa tegishli tashkilotlar jamoalarini ixtiyoriy tartibda birlashtirdi.¹

Teatr san'atini rivojlantirish yo‘lida 1998 yil noyabr oyida o‘tkazilgan «Xumo» xalqaro yoshlar teatrlarining festivali aloxida axamiyat kasb etdi.

Ushbu festivalda O‘zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muxim jabxasi bo‘lgan musiqa san'ati xam juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at axliga talabchan o‘zbek xalqining musiqasi keng ko‘lamli ma'naviyat ko‘zqusidir.

Sho‘rolar davrida asosan mafkuraviy xukmronlik qo‘liga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo‘liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo‘shiqchilik san'atidan baxramand bo‘la boshladilar.

O‘zbekiston xukumati xalqimizning milliy qo‘shiqchilikka bo‘lgan ijtimoiy extiyojini e'tiborga olib milliy ruxdagi, xalqning ko‘ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo‘lgan qiziqishni doimo rag'batlantirdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo‘yicha qator ko‘rik-tanlovlar o‘tkazila boshlandi.

Xususan, 1992 yil mart oyida Toshkent shaxrida tanbur, sato, qo‘shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko‘rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida xavaskor qo‘g'irchoq teatrlari jamoalarining ko‘rik-tanlovi, shuningdek, mashxur san'atkorlar Jo‘raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Xasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janaq Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlar» deb nomlangan ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Ayni vaqtda 1992 yil may oyida Xorazm viloyatida folxlor

¹Fozilov.J, va boshqalar. O‘quvchi ma'naviyatini shakllantirish. -T.:2000.-b.78.

jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, iyun oyida Qo‘qonda o‘tkazilgan IX an’anaviy va lapar, yalla ijroiylarining avgust oyida Toshkent shaxrida o‘tkazilgan XI an’anaviy ko‘rik tanlovi milliy san’atimiz rivojiga katta xissa bo‘lib qo‘shildi.

Mamlakatimiz xukumati qo‘shiqchilik san’atidan mustaqillikning ma’naviy zaminlarini mustaxkamlashda xam unumli foydalanishga e’tiborni kuchaytirdi.

Shu maqsadda 1995 yil dekabrda «O‘zbekiston – Vatanim manim» mavzuidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e’lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shaxar va tumanlarda juda katta ko‘tarinkilik ruxida o‘tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi, ko‘plab iste’dodli san’atkorlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.¹

«O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq ko‘rik-tanlovining 1996 yil mart oyida bo‘lib o‘tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san’atkorlar ishtirok etdi, 10mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki, mazkur tanlov istiqlolni, Vatanni, o‘zligini anglashda muxim qadam bo‘ldi.

Xalqimizning bunday tadbirga qiziqishi ortiq bo‘ldi.

Bularning barchasini e’tiborga olib, 1996 yil avgustda «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq bayrami xaqida» maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg‘usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo‘shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida xar yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni, deb belgilab qo‘yildi.

Ayni paytda, xalqimizning qo‘shiqchilik san’atiga bo‘lgan buyuk qiziqishini e’tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi xuzurida «O‘zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko‘rik-tanlov xozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o‘zbek milliy, shu bilan birga mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o‘z san’atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san’atning qo‘shiqchilik

¹www.ziyonet.uz

turiga teng e'tibor berilishi, ularning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi yanada rivoj topmoqda.

Musiqqa. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda musiqqa yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Tadbirlarda musiqadan ikki xil variantlarda foydalanish mumkin.

Tadbirning alohida nomeri sifatida.

Tadbirlarda aks etilayotgan voqealarning ta'sirini oshirish uchun qo'shimcha vosita (musiqaviy fon) sifatida, 1-variantda badiiy xavaskorlik jamoalarining tayyor yoki maxsus tayyorlangan nomeridan foydalaniladi. Bunday paytda nomer tadbir mazmuni va mavzuiga mos ravishda epizodning tarkibiy qismiga aylanib ketmog'i kerak. Masalan, xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tadbirlarda onalarga bag'ishlangan. «Onajonlar, assalom» qo'shig'i ijro etiladi. Bu qo'shiq alohida nomer sifatida beriladi. Musiqadan foydalanishning bu varianti tadbirlarda juda keng qo'llanilib, she'r o'qilayotganda ham, kino lavhalar ko'rsatilayotgan ham drammatik parchalar ko'rsatilayotganda ham bu vositalarning ta'sirchanligini oshirish mag'sadida xizmat qiladi.

Musiqqa, asosan tadbir ta'sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida ham ishlatilib, aytilayotgan fikrning nozik kechinmalarini ommaga yetkazib berishga xizmat qiladi.

Drammatik parchalar. San'atning bu turi boshqa badiiy asarlardan farq qilib, unda g'oyalar kurashi, qarama-qarshi kuchlar to'qlashuvi, konfliktlar yorqinroq, oydinroq yoritiladi. Shuning uchun teatrlashtirilgan tadbirlarda mazmun rivojiga qarab, drammatik parchalardan keng foydalaniladi.

Tadbirlarda drammatik parchalardan foydalanishning 2 xil usuli bor:

-Tayyor asarlardan olingan parchalar.

-Stsenaristning o'zi tadbir uchun maxsus yozgan drammatik epizodlar.

Teatrlashtirishda faqatgina p'yesalardan parchalar olinishi bilan kifolanib qolmasdan, kecha yo'nalishiga qarab, badiiy adabiyotlardan ham parchalar olinishi mumkin.

Drammatik parchalardan foydalanishning 2-usuli ham keyingi paytda keng qo'llanilmoqda. Tadbirning asosiy vazifalaridan biri mahalliy voqealarni aks

ettirish bo'lgani uchun, ssenariy mualliflari joylarda bo'lgan voqealarni kichik drammatik lavxa shakliga keltirib, undan samarali foydalanmoqda.

Tajribada shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq axolisida madaniy-ma'rifiy tadbirlarga bo'lgan qiziqishning sabablaridan biri bu mahalliy faktlarni, voqealarni inssenirovka shaklida ko'rsatishdir. Ayniqsa mahalliy voqealar asosida yozilgan intermediyalar axoliga manzur bo'lmoqda.

Shuni unutmash kerakki, barcha saxna asarlaridan, psalardan olingan drammatik parchalar yoki badiiy adabiyotlar asosida qilingan kichik inssenirovkalar yoki maxsus ssenariy uchun yozilgan lavhalardan foydalanish-tadbir mazmunining rivojiga yordam bermog'i kerak.

Kinolovxalar-badiiy yoki xujjatli filmlardan olinib, tadbir tashkilotchilariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Kinoning «sehrli kuchi» shundan iboratki, u bo'libo'tgan voqealarni xaqqoniy tasvirlaydi va jonli aks ettiradi. U tarixiy voqealarning guvoxi sifatida xizmat qiladi. Ulardan foydalanish tadbirlarning mazmunini boyitadi, voqealikning xaqqoniy obrazini ko'rgazmali gavdalantiradi. Asosan, kinolavhalardan foydalanish tadbir ssenariysi yozilyotganda rivojlantiriladi va tanlanadi. Ko'pgina tadbirlarda filmlardan olingan lavhalarning o'zi yaxlit bir epizodni tashkil qilishi mumkin.

Ba'zida kinolavhalar boshqa vositalar, ya'ni jonli va badiiy so'z, qo'shiqlar bilan parallel aks ettiriladi.

Texnik vositalar. Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy ishlarni, jumladan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni texnik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki tadbir maxsus nur bilan bezatilmasa, tashkil qilinayotgan tadbir shakli ko'rimsiz va kambag'al bo'lib qoladi. Texnik vositalarning yana bir vazifasi saxnaga xar xil ranglar berish, proyeksion tasvirlar tushirib, tadbirni go'zallashtirish va badiiy-g'oyafiy bezashdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalaniladigan texnik vositalar, asosan, ikki guruxga bo'linadi:

-Nurli-proyeksion apparatlar.

-Ovozli texnik vositalar.

Nurli-proyeksion apparatlar tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tarishda, ularning diqqatini tadbir voqealarining kerakli tomoniga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Proyeksion apparatlar yordamida saxnaning to'riga, ya'ni ekranga hohlagan kattalikda tasvir tushirish mumkin. Ovozli texnik vositalarga ovozlarni yozadigan va tarqatadigan apparatlar, ya'ni magnitafon, diktafon, radio, audio, video apparaturalar, mikrafon va ovoz kuchaytirgichlar kiradi. Ular kerakli ovozlarni, shovqin-suronlarni, musiqa, ashula va nutqlarni oldindan yozib olib, ularni tadbirda eshittirish uchun yaxshi imkiniyatlar yaratib beradi.

Ko'rgazmali vositalar. Tadbirlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. U tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam beradi, tomoshabinning kayfiyatini ko'taradi va taassurotlarini boyitadi. Ko'rgazmali vositalardan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning barchasida foydalaniladi.

Tomoshabinning bo'lajak tadbir bilan ilk bor tanishtiruvchi ko'rgazmali vosita-bu afishalar va taklifnomalardir. E'lonlarda faqat tadbir bo'lishi xaqidagi xabarning o'zinigina yozib qo'yish kifoya qilmaydi, balki uning tuzilishiga qarab, ko'rgazmali bezash ham lozim, she'rlar yozish mumkin. Bu tomoshabinning tadbirga qiziqishini oshiradi. Ko'rgazmalar tadbir mazmuniga to'g'ri kelishi kerak.

Yuqoridagilardan tashqari yana madaniy-ma'rifiy faoliyat tadbirlarida xalq ijodidan ham foydalaniladi.

Xalq ijodi mehnatkash xalq ommasi tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib tobora takomillashtirib, sayqal topib taraqqiy etgan ijod mahsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmushi, tabiat haqidagi tushunchalari, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari, xis-tuyg'ulari va tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi.

O'zaro chambarsas bog'liq bo'lgan xalq ijodini mutaxassislar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'ladilar:

- 1). Xalq og'zaki ijodi;

- 2). Xalq musiqasi, folklor musiqasi;
- 3). Xalq raqs san'ati;
- 4). Xalq teatri;

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda xalq ogʻzaki ijodi janrlarida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Stsenariylarda «soʻz koʻrki-maqol» dan, xalq donishmandligi hisoblangan afsona va rivoyatlardan foydalanish tadbir «tili» ni boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi.

Latifa, lof, askiya tadbirlarning qiziqarliligini oshiradi, mazmunini mustaxkamlaydi, tomoshabinlarni aktivlashtiradi. Topishmoqlar tadbir ijrochilari bilan auditoriya oʻrtasida «jonli» aloqa oʻrnatishga yaxshi imkoniyat beradi. Ayniqsa bolalar uchun tayyorlangan tadbirlarda erkak va dostonlar qaxramonlari ularni gʻoyaviy-estetik tarbiyalashda muhim rol bajaradi. Masalan, Alpomish, Goʻroʻgʻli, Zumrad, Kenja botir...

Xalq musiqa folklori-iste'dodli xalq ijrochilari-sozanda, xofiz oshiq, oqin, baxshi, halfalar tomonidan qoʻshiqlari muhim oʻrin tutadi. Inson hayotining boshlanishidan to soʻnggi xotimasigacha boʻladigan xar bir marosim, toʻy bayram va boshqa voqealarda ijro etiladigan qoʻshiqlar mavjud. Jumladan, bola tugʻilishi, tarbiyalanishi, ilk bor sochini oldirishi, tishi chiqishi birinchi mustaqil qadam tashlashi marosimga bagʻishlangan qoʻshiqlar, nikox toʻylarida aytiladigan yor-yor. Lapar, oʻlanlar, motam marosimlarida aytiladigan marsiya, yigʻiq yoʻqlov kabi aza qoʻshiqlar oilaviy tadbirlarning muhim xalqining tabiat va mehnat bayramlari ham maxsus ijro etiladigan qoʻshiqlarsiz oʻtmagan. Madaniy-ma'rifiy faoliyat shakllarini tayyorlashda har bir tadbirga mos xalq qoʻshiqlarini izlab topmoq va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq raqs san'ati-voqealikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. Oʻzbek xalqida raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bogʻlanib ketgan va shu an'ana hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz badiiy xavaskorlik ijodining eng rivojlangan janri-bu ashula va raqs ansambllaridir. Xalq raqs san'atidan vosita sifatida madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish katta ahamiyatga ega.

2.2. San'at va madaniyat sohasini boshqarish va madaniy tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Ibtidoiy jamiyatda musiqa kundalik hayotning tarkibiy, ko'p hollarda diniy marosimga oid qismi hisoblangan. Musiqa bilan barcha odamlar shug'ullanar edi, musiqa tinglovchilari yo'q edi. Musiqada professionallashish sahna va boshqa san'at turlarida professionallashish bilan birga amalga oshdi. Bunda davlat va podshohlar saroylari katta rol o'ynagan, chunki ular musiqa va boshqa san'at turlaridan ularning kuchi va yutuqlarini namoyon etuvchi vosita sifatida foydalanishar edi. O'rta asrlarda teatr va musiqani ko'chmanchi jonglyorlar bilan bog'lashar edi. Musiqani barcha tabaqadagi odamlar: dehqonlar qishloqda bo'ladigan bayram va diniy marosimlarda, xunarmandlar- xunarmandchilikga oid bayramlarda, saroy a'yonlari va zodagonlar - musobaqa va rasmiy marosimlarda tinglaganlar.

Musiqani mushtarak tinglash uchun musiqiy asboblarning va notali tizimining vujudga kelishi musiqa olamida turli o'zgarishlarga olib keldi: musiqiy asarlarni yozish va ularni boshqa musiqachilar tomonidan ijro etish imkoniyati tug'ildi.

Uyg'onish davrida aristokratik musiqa tug'ildi, musiqiy asboblarning ko'plab turlari qo'llana boshlandi, saroylarda professional, o'qigan musiqachilar faoliyat yurita boshladi. Musiqa esa xalq va elitaga bo'lindi. Yevropada saroy a'yonlari va musiqachilar bugungi ijodiy uyushmalarga o'xshashgan tabaqa sexlariga birlashishdi. Sexlar nafaqa va kasallik fondlarini tashkil qilib, musiqani yaratish va ijro etish uchun tariflarni tasdiqladi, turli bayram va tantanalarda musiqa ijrosining monopoliyasiga egalik qildilar¹.

O'sha davrlarda hokimiyat (ya'ni davlat va xukumron sinf) musiqiy ijodiyot, hamda musiqaning ijro etish va tarqatish shakllariga bevosita ta'sir eta boshladi. Muayyan musiqiy janrlar (opera) xukumronlik qiluvchi tabaqalarning hokimiyat va nufuz ramziga aylandi.

¹U.Qoraboev "Madaniyat masalalari", -T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2010 y.,- B. 60.

Zodagonlarning qashshoqlashuv jarayoni, hamda madaniiy saviyasini oshirishga intilayotgan fuqarolik sinfining rivojlanishi birinchi ommaviy pullik konsertlarning vujudga kelishiga olib keldi. Germaniya va Angliyaning badavlat savdogarlari konsert zallarini yaratdilar. Endi musiqachi emas balki musiqa “tovar”ga aylandi, ya'ni musiqani, shu jumladan uning partiturasini va musiqiy asarning ijrosini baholash zaruriyati kelib chiqdi. XVIII asrning oxirigacha bastakor o'z asarini sotish yoki qalam haqi olish uchun huquqiga ega emas edi. Nashriyotchilik faoliyat doirasida partituralar nashri tobora rivojlanib bordi, bunda musiqaga partituraning mualliflik huquqini sotib olgan noshir ega bo'lgan. Lekin ushbu huquq asarni ijro etishga emas, balki partiturani keyinchalik nashr etishga tegishli edi.

XIX asrda musiqiy asarlarni ijro etish sahna tomoshasiga aylandi. Mahalliy xokimiyat yoki davlat byudjetidan moliyalashtirilgan ko'plab orkestrlar tashkil qilindi. Opera san'ati esa qizg'in paytiga yetdi. O'rta va oliy musiqiy ta'lim muassalari tizimi rivojlana boshlandi, mashhur musiqiy ijrochilarning turli gastrol va turnelari tashkil qilindi. Orkestrlar murakkabroq musiqiy ansambllarga aylana boshladilar va ularga dirijyorlar kerak bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmida tashkilotchi - dirijyor Berlioz “dirijyor hukmronligi” nazariyasini yaratdi.

Madaniy qadriyatlarga bo'lgan bozor munosabatlarining qonuniyati musiqiy san'atga ko'plab talablar qo'yadi va mualliflik huquqidan boshlab to “xit” va “yulduzlar”ni yaratishgacha bo'lgan musiqiy menejment uchun muayyan me'yorlarni aniqlab beradi.

XX asrda “yulduzlar” qatoriga mumtoz va elita musiqasi ijrochilar bilan birga ommabop, xalq va ko'ngil ochar musiqa ijrochilari ham kira boshladi. Ommabop musiqani bozorga kafe, kabare va boshqa shu kabi joylardan chiqishi ushbu musiqa muallif va ijrochilarining ahvolini ancha yaxshiladi. Uning tinglovchilari esa asosan shaharliklar bo'ldi.

Musiqaning tarqalish ko'lami. XX asrning boshlariga kelib grammofon plastinkalarning ishlab chiqarilishi va radio eshittirishning rivojlanishi orqali yangi tus oldi. Bunday taraqqiyot natijasida nafaqat musiqaning idrok etilishning o'ziga

xos xususiyatlarida, balki butun bir musiqiy faoliyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ijro etilgan musiqiy asar yoziladi, ko'paytiriladi va radiostansiyalar orqali tinglovchilarga uzatiladi, bu esa o'z navbatida muayyan musiqani cheklanmagan tarzda qayta ijro etish imkonini berdi. Shunday qilib, san'atning ko'plab boshqa turlariga o'xshab musiqa turli sohalarni (mumtoz, yengil, rok, pop, xalq, jaz musiqasi sanoati), hamda differensiyalashgan sotish bozorini qamrab oluvchi sanoatga aylandi.

Bugungi kunda musiqiy faoliyatdagi ijtimoiy-madaniy sikl quyidagi bosqichlarda aylanishni xosil qiladi:

1. Badiiy ehtiyojlar (konsert tinglovchilari, rok-musiqasi tinglovchilari, xalq musiqasi tinglovchilari, musiqachilar va qo'shiqchilar, havaskorlar);
2. Badiiy ta'lim (umum ta'lim maktablarida musiqa darslari, musiqiy maktablar, musiqiy san'at fakultetlari, konservatoriyalar);
3. Ijodkorlik (musiqa san'atkorlari uyushmasi, filarmoniya, simfoniya va kamera orkestri);
4. Musiqiy sanoat (nashriyot; musiqiy asboblari, ovoz yozish apparatura va vositalarni ishlab chiqarish);
5. Badiiy asarlar (partitura, konsert, ovoz yozish) yoki muxofaza qilish va saqlash (fonoteka, partituralarni yig'ish);
6. Tarqatish (konsert agentliklari, konsert zallari, festivallar, ko'rik va tanlovlar, musiqiy tanqid);
7. Ommani jalb etish (musiqiy dasturlar, taqdimotlar)¹;

Musiqa shakllari. Ayrim statistik ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda inson har kuni o'rtacha hisobda 2 soat turli musiqiy ijroning ta'siriga muhtalo bo'lar ekan. San'atning boshqa turlariga nisbatan musiqa tinglovchilarning bo'linishi ancha qat'iy bo'lib, misol uchun, mumtoz musiqani xush ko'radigan havaskor odatda radio dasturlarni eshitadi, opera, filarmoniya konsertlariga tashrif buyuradi. Mumtoz musiqasi sohasida sof iqtisodiy maqsadlarda harakat qilishning

¹ U.Qoraboev "Madaniyat masalalari", -T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2010 y.,- B. 64.

imkoniyati deyarlicha yo‘q. Mumtoz musiqa yo‘nalishdagi muassasalarning moliyaviy manbaalari bo‘lib byudjet, yirik sanoat konsernlar va xususiy homiylar hisoblanadi.

Madaniy jamoatchilikning uncha e'tiboriga tushmagan xalq musiqasi o‘zining ommaviy tinglovchilariga egadir. Amerika kantri musiqasidan tashqari xalq musiqasi rok-va pop musiqasiga qaraganda baynalminal emas hamda milliy va til chegaralari bilan cheklangan.

Ayrim xollarda moda tendensiyalariga binoan qaysidir musiqa xalqaro tinglovchilari tomonidan qabul qilinishi ham kuzatiladi (50-yillarning meksika, 60-yillarning yunon, 70 -yillarning lotin amerika xalq musiqasi)¹. Aynan bugun musiqada etnoyo‘nalish o‘ziga xos xit bo‘lib asosan bu bilan yirik musiqiy kompaniyalar shug‘ullanmoqdalar.

Ommaviy musiqiy tinglovchilar yoshi va milliy xususiyatlariga qarab bo‘linadi. Yoshga oid farqlar estrada, rok- va pop-musiqada, milliy farqlar esa xalq musiqasida seziladi.

Opera musiqiy va sahnaga oid shakl hisoblansa ham, uni teatr san'ati hamda musiqiy san'ati doirasida o‘rganish mumkin bo‘lsada, ijtimoiy madaniy nuqtai nazaridan u musiqaga kiritilgan, chunki uning muallif va tinglovchilari musiqiy muallif va musiqiy tinglovchilar hisoblanadi. Dunyo amaliyoti opera teatrlarni moliyalashtirishga byudjetdan katta hajmdagi mablag‘lar ketishini ko‘rsatadi. Kirish chiptalari esa ushbu xarajatlarning faqatgina besh-yetti foizini qoplaydi. Katta truppa va orkestrlarning soni tashkiliy muamolarini kelib chiqaradi. Ayniqsa yakka ijrochilar bilan ishlash, orkestrni muvofiq musiqachilar bilan ta'minlash qiyinchiliklar tug‘diradi. Shundan kelib chiqqan holda barcha mamlakatlardagi opera teatrlarning soni boshqa janrdagi teatrlar soniga nisbatan ancha kamroqdir. Oxirigi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy tashabbus orqali ko‘plab kamera opera teatrlari teatr musasalarning jozibali shakli sifatida vujudga kelmoqda. Musiqiy festivallar muayyan joyda, ma'lum bir vaqtda, hamda ma'lum bir mavzu yo‘nalishida (milliy, zamonaviy musiqa, muayyan musiqiy asboblar,

¹www.ziyounet.uz O‘zbekiston ta’lim portali.

ma'lum bir bastakorlar asari va h.z.) o'tkaziladigan ommaviy musiqiy tadbirlar kompleksidir. Musiqiy festivallar tanlov harakterda bo'lishi ham mumkin. Ular turli darajada- shahar, xudud, mamlakat va xalqaro darajada o'tkazilishi mumkin.

Musiqiy festivallar soni yildan yilga o'sib bormoqda. Faqatgina Yevropada bir yil mobaynida ularning soni bir yarim mingdan ikki mingga yetmoqda. Ommaning festivallarga bo'lgan qiziqishi shunchalik kuchlikki, xatto kirish chiptalarining anchagina qimmatliliga qaramay talab taklifdan oshiqdir. Misol uchun, Myunxenda o'tkaziladigan opera festivalida talab zaldagi joylar soniga nisbatan besh barobar oshiq bo'ladi¹.

Yangi festivallarni paydo bo'lishi, ularning sonini ko'payishi ularga bo'lgan talab natijasi sifatida ko'rish mumkin. Ushbu talab quyidagi omillarga bog'liqdir:

1. Aholining hayot darajasi o'sishi. Bu esa dam olish va xordiq chiqarishga yangi imkoniyatlarni yaratib berishi mumkin.

2. Yangi ommaning jalb etilishi. Misol uchun, mumtoz musiqa konsertlari son jihatidan juda ham cheklangan ommani yig'adi va asosan oliy ma'lumotli, hamda aholining badavlat qatlamini. Ko'plab odamlarga bunda ijtimoiy madaniy to'siq paydo bo'ladi. Festivallar esa o'zlarining zallari bilan elita tinglovchilarga mo'ljallangan zallarga nisbatan tomoshobinlarni o'zidan cho'chitib qochirib yubormaydi.

3. Festival tashkilotchilarining katta daromad olish imkoniyati. Misol uchun, ovoz yozish studiyalar tomonidan mashxur qo'shiqchilar ijrosini yozib olish, homiylar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini reklama qilish imkoniyati.

4. Festivallar tanlov harakteriga ega bo'la turib, bo'lajak musiqa yulduzlari karyerasida zinapoya bo'lishi mumkin.

5. Obro'li festivallar maxalliy xokimiyatning siyosiy ma'nosini oshirishga ko'maklashadi.

6. Festivallarga siyosiy kuchlar ham manfaatdor bo'ladi. Siyosiy partiyalarning festivallarni tashkiliy masalalarda qatnashishi bunday tadbirlar

¹U.Qoraboev. "O'zbekiston bayramlari" –T.: "Ўқитувчи" 1991 у., -В. 23.

homiysi sifatida ularning imijini shakllantiradi, ular ommaviy axborot vositalarida diqqat markaziga tushadi.

Musiqiy festivalar tashkilotchilari yil davomida faoliyat yurituvchi boshqa statsionar madaniy muassasalarga nisbatan kamroq xarajatlar sarflab ma'lum bir moliyaviy va ijtimoiy madaniy samaraga erishishadi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda o'sha xarajatlar evaziga ancha ko'proq foyda oladilar.

Frey va O'. Galen tomonidan ayrim mashxur musiqiy festivallar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar festivallar o'ziga xos hayotiy siklga egaligini ko'rsatdi. Ularning xulosalari qiziq va quyidagicha: Yevropa mamlakatlarining davlat xukumatlari mashxur ommaviy madaniy tadbirlarning homiysi bo'lishga harakat qilib, ular uchun ma'lum byudjet mablag'larni ajratishga ham tayyordirlar. Natijada festivallar rasmiy madaniy siyosat ta'siriga duch kelib, ularning dasturlariga davlat aralashadi, boshqaruv esa byurokratlashadi. Bunday vaziyat o'zgacha paradoksga ya'ni ushbu yoki boshqa shaharda muqobil festivalni ta'asis etishga olib keladi. Yangi festivalning esa hayotiy sikli boshlanadi.

Teatr faoliyatida menejment. Ko'plab zamonaviy tillarda "teatr" so'zi ikki ma'noga ega: bu teatr binosi va teatr faoliyati kompleksi. "Teatr" so'zi etimologik tarzda qadimgi yunon tilidan paydo bo'lib, "kuzatmoq", "diqqat bilan qaramoq" ma'nosini anglatadi. XIX asrda yevropa mamlakatlarining milliy madaniy yuksalishi madaniy, shu jumladan teatrga oid hayotni boshqaruvchi muvofiq muassasalarni ta'asis qilishni talab qildi. Milliy teatrni yaratishda nafaqat teatrni qurish, balki yozuvchilar, artistlar, rejissyorlar, musiqachilar, madaniyat xodimlarini, hamda teatr chiptalarni sotib olish bilangina emas balki teatr qurilishiga xayr ehson bilan yordam qo'lini uzatuvchi tomoshobinlarni qamrab oladigan muassasalarni tashkil qilish ham tushunilgan. Agarda teatr xususiy bo'lmasa, unga mahalliy hokimiyat bilan birga davlat ham moliyaviy yordam ko'rsatib, uning direktorini tayinlagan va uning repertuarini senzurdan o'tkazgan.

XX asrning boshlaridagi bir tomondan doimiy faoliyat yurituvchi milliy teatrning, ikkinchi tomondan ko'chadagi tijorat teatr tomoshalarining mavjudligi san'atda ro'y berayotgan o'sha davrning harakatlariga xos teatr arboblari

ehtiyojlarini qondirmadi. Davlat tomonidan moliyalashtirilgan va hukumat talablarini ijro etishga majbur bo'lgan milliy teatrlarda qandaydir o'zgartirishlar kiritish qiyin edi. Teatrga oid tajribalar kichik zallarda o'tkazila boshlandi. Bunda turli rejissyorlar o'z truppasi bilan dasturlarining muhimligini isbot qilishga xarakat qilar edilar. Meterlink, Arto, Reygardt, Brext, Piskator, Kreg va Bob Uilson, Piter Shuman, Robert Chuli, Piter Bruk, Eujenio Barba, Grotovskiy kabilar tomonidan teatrning rasmiy me'yorlaridan ancha yiroq bo'lgan turli maydonlarda har xil tajribalar o'tkazilgan¹. O'zlarining g'oyaviy dasturlariga muvofiq muqobil teatrlar teatr lojasi bo'lmagan va o'rinlarida tartib raqami qo'yilmagan zallarda yoki istrohat bog'larining ochiq maydonlarida spektakllar ko'rsatgan.

Brodveydagi tijorat teatrlari dotatsiyasiz kun kechiradigan Amerika teatrining ramzidir. Mutlaq bozorga yo'naltirilgan ushbu teatrlar tomoshobinlarda qiziqish uyg'otadigan yoki bosh rollar kino yulduzlari tomonidan ijro etiladigan spektakllar qo'yadi. Prodyuser teatrning boshqaruvchisiga aylanadi. U ijodiy jamoani jalb qiladi, kerakli mablag'larni topadi va taqsimlaydi. Uning intilishlari birinchi navbatda ijodiy muvaffaqiyat bilan emas balki tijorat maqsadlar bilan bog'liqdir. Premyeradan oldin prodyuser mablag'ning katta qismini reklama kampaniyalariga qo'yadi. Aktyor, qo'shiqchi va raqqoslar teatr bilan qat'iy shartnomalar orqali bog'liq bo'ladi.

Teatr faoliyati menejmenti san'at menejmentining yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni tushunishda teatr san'ati sohasidagi ijtimoiy-madaniy jarayonni kuzatish maqsadga muvofiqdir). Ushbu sikl quyidagi bosqichlarda aylanishni xosil qiladi:

1. Badiiy ehtiyojlar (teatr tomoshobinlari, badiiy havaskorlik);
2. Badiiy ta'lim (dramatik san'ati fakulteti (aktyor, rejissyor, tashkilotchilar), amaliy san'at fakulteti (sahna bezagi, kostyumografiya));
3. Ijodkorlik (dramatik aktyorlar uyushmasi, teatrlar, teatr nashriyotlari);
4. Badiiy asarlar (teatr tomoshalari) yoki muxofaza qilish va saqlash (teatr san'ati muzeylari; teatr, kino, radio va televideniye instituti);

¹Umar Xayyom. Navro'znoma. T., Mehnat, 1990, 12 bet

5. Tarqatish (spektakllar, gastrollar, festivallar, spektakllarning televizion translyatsiyasi, teatroteka);

6. Ommani jalb etish (teatrga oid tadbirlar, havaskorlik, OAV materiallari, ommaviy teatr adabiyoti bo'yicha nashrlar)¹;

Repertuar teatrdagi menejment. Teatr muassasa sifatida XVII va XIX asrlar mobaynida doimiy barchaga ochiq repertuar teatr ko'rinishda shakllangan. Bugungi kunga kelib ijtimoiy va texnologik yangiliklarni ro'y berishiga qaramay teatr katta o'zgarishlarga duch kelmadi.

Teatrning tashkiliy tuzilmasi quyidagichadir:

- ijodiy bo'lim
- texnik bo'lim
- umumiy (ma'muriy) bo'lim

Ijodiy bo'lim teatr faoliyatining asosiy g'oyasini ifodalovchisi bo'lib, teatr, repertuar siyosat, postanovka va artistlar bilan ishlashni badiiy boshqaruviga bog'liq barcha narsani qamrab oladi.

Texnik bo'lim spektaklni texnik tayyorgarligi (ustaxonalar) va sahna ishlari (teatr sahna bezagi, rekviziti, yoritish, ovoz, mexanika va h.z.) bilan shug'ullanadi.

Umumiy bo'limga barcha ma'muriy, buxgalteriya va tijorat xizmatlari kirib, bunda ish yuritish, axborot va reklama ishlari bilan shug'ullanadilar.

Spektakl (teatr mahsuli)ni yaratish teatr muassasasi faoliyatining mohiyati hisoblanadi.

Ishlab chiqish jarayoni bu yerda barcha bo'limlar murakkab faoliyatining ko'plab bosqichlaridan o'tadi, chunki artist, rejissyor, musiqachi va boshqa ijodkor xodimlar band bo'lgan ijodiy ish boshqa bo'limlar xizmatlari bilan o'zaro harakatisiz amalga oshmaydi.

Spektakl postanovkasi g'oyasining vujudga kelishidan boshlab to uni hayotga tadbiq etilishgacha bo'lgan davr teatr faoliyatining ishlab chiqish sikli hisoblanadi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Repertuarga kiritish uchun asarni tanlab olish:

¹Umar Xayyom. Navro'znoma. T., Mehnat, 1990, 15- bet

- bir qancha asarlar bilan tanishish;
- postanovka uchun asarni tanlab olish bo'yicha qaror qabul qilish va rejissyor bilan shartnoma tuzish.

2. Postanovkaga tayyorgarlik:

- spektaklning postanovka konsepsiyasini ishlab chiqish;
- spektaklda qatnashish uchun aktyorlarni tanlab olish, ularga rollarni taqsimlash;
- kerakli ijodkor xodimlarni, shu jumladan kostyumer, sahna bezakchisi, bastakorlarni tanlash;
- spektaklni tayyorlash uchun reja tuzish (operativ va moliyaviy rejalar, aloxida ishlarning bajarilishini belgilash).

3. Spektakl postanovkasi bo'yicha ishlash:

- kostyum va sahna bezagi eskizlarini tayyorlash;
- pyesani o'qish;
- mizanssena (spektaklning ayrim paytlarida sahna bezagi va aktyorlarning joylanishi)ni aniqlash;
- texnik bo'limga vazifalarni taqsimlash;
- spektaklga jo'r bo'lgan musiqa (musiqani tanlash, bastakorga buyurtma berish yoki tayyor musiqiy asarlarni yozib olish);
- sahnani tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsimlash.

4. Tamomlovchi bosqich; spektaklni tayyorlash bo'yicha barcha (texnik va ijodiy) tomonlarni birlashtirish.

5. Bir repetitsiya davomida spektaklni boshdan -oyoq ko'rikdano'tkazish:

- aktyorlar bilan birga yoki ularsiz texnik repetitsiya (sahna bezagi, musiqa jo'rliqi, proyeksiyalar);
- spektaklning oxirgi repetitsiyasi.

6. Marketing reja: premyeraga axborot -reklama materiallarini tayyorlash (afisha, dasturlar va h.z.), OAVda e'lon qilish, televizion kliplar va video roliklar tayyorlash.

7. Premyera

8. Premyeradan soʻng analitik ishlar:

- OAVda tanqidiy materiallarni taxlil qilish va baxolash, ularga javob berish, tomoshobinlarning fikrlarini oʻrganish, spektaklga muvofiq tuzatishlar kiritish;

- spektakl postanovkasi bilan bogʻliq xujjat va materiallarni yigʻish va arxivga oid qayta ishlash;

- spektaklga tomoshobinlarni jalb etish boʻyicha reklama tadbirlari;

- keyingi marketing rejani amalga oshirish¹.

Yuqorida koʻrsatilganday, bitta spektaklni ishlab chiqish uchun turli soha mutaxassislarining koʻplab soni rejissyordan tortib to axborot-reklama ishlari boʻyicha mutaxassislargacha jalb etiladi.

Tugallangan spektakl teatrning oʻzida, hamda gastrollarda ijro etish uchun repertuarga qoʻshiladi. Spektakl, shunday qilib nafaqat badiiy asar, balki sanʼat bozorida sotish uchun mahsulotga aylanadi. Faqatgina shu yoʻl bilan u yashaydi, tomoshobinlarga ochiladi. Spektaklni tayyorlash jarayoni va uning repertuar hayoti teatr mavsumida oʻtadi. Teatr sarf -harajatlarning katta qismi byudjet mablagʻlaridan qoplanadi. Kassa yigʻimlari kerak boʻlgan mablagʻlarning faqatgina 10-20 foizni bera oladi. Bu yerga bundan tashqari spektaklni televizion suratga olish va translyatsiya qilish huquqini sotishdan tushgan daromad ham kiradi. Shuning uchun moliyaviy jihatdan teatrlar gastrollarni tashkil qilishda manfaatdor emaslar. Lekin moliyaviy tomondan tashqari yana ustun turuvchi ijodiy jihati ham bor- bu teatr xodimlarining oʻz mahsulini zalga toʻlgan tomoshobinlarga koʻrsatish ishtiyoqidir. Jamiyat ham tabiiyki teatr madaniyatini rivojlanishida manfaatdor.

YUNESKO statistik koʻrsatkichlariga muvofiq aholining bir foizdan besh foizigachaginani teatr tomoshobinlari qatoriga kiritish mumkin ekan. Ushbu fakt teatr menejmenti oldiga maʼlum masalalarni qoʻyadi¹. Bunday masalalaridan biri bu teatr madaniyatini tarqatish. Teatr madaniyatini tarqatishni OAV, nashriyot va

¹Umar Xayyom. Navroʻznoma. T., Mehnat, 1990, 15- bet.

¹Xalq soʻzi» gazetasi, 2007-yil, 23-fevral

ko'rgazmalar orqali amalga oshirish mumkin. Teatr muzeylarining hissasini ham inobatga olish dardkordir. Asosan teatr tarixi va nazariyasi sohasida tadqiqot ishlar bilan shug'ullana turib, ular muntazam ravishda katta teatr postanovkalarining videoko'rsatuvlarini tashkil qilib turadilar.

Xulosa

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliy ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanish asosiy soha bo'lgani sababli, madaniyat muassasalari komil insonni tarbiyalash jarayoniga o'zining munosib hissasini qo'shishga mas'ul hisoblanadi, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, uni axloqiy jihatdan barkamol qilmasdan turib rivojlanish vazifalarini hal etish mumkin emas.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi.

Xalq orasida, turarjoylarda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarning bu ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos imkoniyatlar mavjud.¹

Shu narsani e'tiborda tutish kerakki, madaniy-ma'rifiy tadbirlar asosan joylarda va konkret aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatadi.

Shu boisdan ham madaniyat muassasalari muayyan regionning asosiy madaniyat markazi, ma'rifat va mazmunli dam olish maskani sifatida xalq ijodini kamol toptirishda, bayram va sayillarni uyushturishda keng imkoniyatlarga ega ma'naviy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida xizmat qilmoqdalar.

Madaniyat muassasalari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, shaxs ma'naviyatini har tomonlama rivojlantirish va ularning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi shaklida amalga oshiradi. Madaniy merosimizni eski andozalaru yondashuvlardan xoli xolda chuqur va har tomonlama tadqiq etish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz yaratgan, ammo turli sabablarga kura chet ellarga chiqib ketgan madaniyat boyliklarini izlab topish va o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli va tadrijiy davom ettirish bilan bog'liq vazifalar shular jumlasidandir.

¹«Xalq so'zi» gazetasi, 2007-yil, 23-fevral

Ayni paytda, fan, adabiyot, san'at, umuman milliy madaniyatimizning barcha sohalarini jahon madaniyati yutuqlari asosida boyitish va rivojlanishning yangi bosqichiga kutarishning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bularning barchasi o'z navbatida mustaqillik ruhiyatiga singgan, yurt manfaati va millat istiqbol yo'lida qayg'uradigan yangi insonni tarbiyalashdek bosh vazifani xal etishga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash zarur.

Madaniyat jabxasida faoliyat kursatayotgan turli ijodiy tashkilotlar va birlashmalar esa aholining madaniy ehtiyojlarini tulaqonli qondirish, milliy madaniyat, adabiyot, san'at, musiqa, teatr, kino yutuqlarini, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni keng targ'ib etish borasida sermaxsul natijalarga erishayotganlarini aloxida qayd etish lozim.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to'la hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayotini ham qayta qurish talab etiladi. Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan kelib chiqib quydagi taklif va tavsiyalarni e'toboringizga havola etmoqchiman.

- Madaniy tadbirlarni tashkil qilishda aholining ehtiyojlarini inobatga olgan xolda tashkil etish kerak.

- Madaniy tadbirlarni rivojlantirish uchun viloyatlardagi chekka qishloqlarda ham faoliyatni keng yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati

Rasmiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -T.: 1997.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: O'zbekiston, 2001.
5. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild.–T.: O'zbekiston, 2002.
6. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l–demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Asarlar, 11 jild.–T.: O'zbekiston, 2003.
7. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Asarlar, 12–jild. –T.: O'zbekiston, 2004.
8. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar, 13-jild. -T: O'zbekiston, 2005.
9. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari–oliy qadriyat. 14-jild.-T.: O'zbekiston, 2006.
10. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
11. Karimov I.A "Barkamol avlod –kelajagimiz tayanchi" –T.: "Ma'naviyat". 2010.-192 B

12. Karimov I.A. O‘zbekiston Mustaqillika erishish ostonasida, “O‘zbekiston” 2011. 440.B

O'quv qo'llanmalar

1. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi “Madaniyat sohasiga oid me’yoriy hujjatlar to‘plami” –T.: “MEDIANASHR” 2010 yil. 108-111, betlar.
2. Umar Xayyom. Navro‘znoma. T., Mehnat, 1990, 12 bet
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1 tom. T.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 584 bet.
4. Fozilov.J, va boshqalar. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. -T.:2000.-b.78.
5. Xalq so‘zi» gazetasi, 2007-yil, 23-fevral
6. U.Qoraboev. “O‘zbekiston bayramlari” –T.: “Ўқитувчи” 1991 у., -B. 23.
7. U.Qoraboev “Madaniyat masalalari”, -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2010 у.,- B. 60.
8. A.Begmatov, R.Rustamova “Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy-marifiy tadbirlar” –T.: “Ma’naviyat” 2007 у., -B.46.
9. U.Qoraboev “O‘bek xalqi bayramlari” -T.: “Sharq” 2002 у., -B. 11.
10. Falsafa: qomusiy lug‘at. –T.: ”Sharq”, 2004. –B.121.
11. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘at.-T.:G‘.g‘ulomnomidagi NMIU, 2010 у., -B.152.
12. Shuhrat G‘oyibnazarov. “Ommaviy madaniyat”.-T.: “O‘zbekiston” 2012 у.-B.107.
13. Suyunov A. “Ommaviy madaniyat” ko‘lankasi yoxud ma’naviy taxdidlar haqida.-T.: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2010 у.,
14. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. –T.: “Ma’naviyat”, 2006 у.,-B.91.
15. www.ziynet.uz O‘zbekiston ta’lim portali.
16. www.google.uz

Ilovalar.

1.Ilova.

Abu Rayhon Beruniy bayramlarni hayotdagi
“eng muhim kunlar” deb ularni quyidagi
turlarga bo‘ladi.

2. dunyoviy
bayramlar.

1. diniy
bayramlar.

U.Qoraboyev xalq bayramlari mohiyatini belgilovchi bayramlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bayramning uchta asosiy xususiyatini belgilaydi:

4. Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo'lishi, bayramga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishi;

5. Bayramona holat, kayfiyatning paydo bo'lishi – bu hali bayram degani emas. Shu kayfiyatni, shu holatni, intilishni ro'yobga chiqarish uchun bayramni tashkil etish kerak. Ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir.

Bayram bu – teatrlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, kontsertlar, ko'rik-tanlovlar bellashuvlar, ya'ni rang-barang ommaviy tadbirlar birligidir.

Ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari (bunga ovchilik o'yinlari, zoofagik (ya'ni, totem hisoblangan ayiq, yovvoyi echki, sigir, bu esa ot kabilarga sig'inish) bayramlar, mehnat o'yinlari, orgaist bayramlari va boshqa bayramlarni kiritish mumkin).

O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy (islomgacha bo'lgan) bayramlar.

O'rta asrlardan inqilobgacha bo'lgan davrdagi o'zbek bayramlari.

Sho'rolar davridagi bayramlar.